

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

BOLTABOYEVA AZIZA HATAMJON QIZINING

5111700 - BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISHKUNDUZGI TA'LIM YO'NALISHI
BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLIH UCHUN «**BOSHLANG'ICH SINFLARDA
O`QITISHNING INTERFAOL USULLARI**» MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

GulDU «Boshlang'ich ta'lim uslubiyati»
kafedrasining 29. 05. 2015 yildagi 10 - sonli
majlis qarori bilan himoyagatavsiya etildi.

Kafedramudiri: dots. **R. ERGASHEV**

Rahbar: p.f.n., dots. **R. ERGASHEV**

Bajaruvchi: **A. BOLTABOYEVA**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Ibob. BOSHLANG`ICH SINFLAR TA`LIMJARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.....	9
1.1. Boshlang`ich sinflarda ta`lim metodlari.....	9
1.2. Boshlang`ich sinflarda o`qitishning interfaol usullari tasnifi.....	28
IIbob. BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QITISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	68
2.1. Tabiiy-matematik fanlarni o`qitishda interfaol usullarni qo`llash.....	68
2.2. Gumanitar fanlarni o`qitishda interfaol usullarning afzalligi.....	82
XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.....	100
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	105

“Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”

I.Karimov.

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta`lim texnologiyalari, ta`limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta`kidlagan¹. Buni ta`minlash bo`ljak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo yechimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining «Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta`lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo`lishi lozim,” deb ta`kidladi².

O`quv jarayoniga tadbiq etilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda umumiy o`rta ta`lim muassasalari uchun yaratilgan “Davlat ta`lim

¹Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo`llari va choralari. – T.: «O`zbekiston», 2009. – 7b.

²Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma`naviyat», 2008. – 61b.

standarti”da o`quvchilarning bilishlari zarur bo`lgan majburiy bilimlar hajmi aniq ko`rsatilgan. Ularni o`quvchilarga yetkazish, o`quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o`qib olish va ijodiy izlanishgayo`naltirish, o`zlaridagi qobiliyatni rivojlantira borish ko`nikmalarini orttira olish uchun o`qituvchilar yangi pedagogik texnologiya asosida pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana olishlari zarur bo`ladi.

(13,14,15)

Shuningdek, o`zlashtirilayotgan har bir predmet darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog`lanishiga erishish lozim. Buning uchun ularni o`z o`rnida sahna chiqishlarini tashkil etish, rolli o`yinlar o`tkazish orqali namoyish etsa yaxshi samara beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda, tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o`zi nihoyatda **dolzarbligini**, qolaversa, uning o`quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

Ta`lim-tarbiya jarayonida boshlang`ich ta`lim asosiy davrlardan hisoblanadi. Agar o`quvchi boshlang`ich ta`lim davrida o`quv predmetlarini yaxshi o`zlashtirsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga ega bo`ladi. Umumiy o`rta ta`limda yaxshi natijalarga erishgan o`quvchi kelajakda yaxshi kasb egasi bo`lib jamiyat uchun, uning ravnaqi, xalqning farovon yashashi uchun jon kuydiradigan mutaxassis bo`lib kamol topadi.(12)

Talim sohasidagi muhim hujjatlar – «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009-yillarga mo`ljallangan maktab ta`limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» talablariga asosan yosh avlodga jahon ta`lim standartlari darajasida ta`lim va tarbiya berish ko`zda tutilgan. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyalaridan biri komil inson g`oyasi hisoblanadi. O`quvchilarni komil inson etib tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Komil inson asosiy g`oyasini amalga oshirishda boshlang`ich ta`lim davri muhim ahamiyatga ega.(1,2,7,8)

Ushbu dolzarb muammolarga bag`ishlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida boshlang`ich sinf o`quv predmetlarini o`qitishda interfaol usullarning

nechog`liq muhim va o`ziga xos xususiyatlari, afzalliklari, rang-barangligi ko`rsatilgan. Tadqiqot ishi natijalari boshlang`ich sinf o`qituvchilari, boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi talabalari uchun dasturulamal bo`ladi, degan umiddamiz.

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risidagi» Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ni ta`lim jarayoniga tatbiq etish bilan ta`limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta`lim standartlari to`liq bajarilishi ta`min etish davri boshlanadi.(3,9,11)

Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangidan rekonstruksiya qilish, joriy ta`mirlash ishlari jadal sur`atlar bilan olib borilmoqda.

Maktablarni yangi jihozlar, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan, tajriba-sinovdan o`tgan standartlar, darsliklarni yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta`minlash, kompyuterlashtirish Davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida olib borilgan ta`lim sohasidagi islohotlar bevosita o`quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.(14,15)

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o`rniga darslarni tashkil etishga mas`uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, mas`uliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o`zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta`limni tashkil eta oladigan o`qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta`limda moddiy baza, standart, o`quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o`zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg`ulotlarni olib boruvchi o`qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga

bogʻlanib qolaveradi, oʻquv- biluv markazida esa oʻquvchi turmogʻini taqozo etadi.(5,6,10,33)

Har qanday taʼlim oʻquvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga ehtiyojiga qaratilmogʻi kerak. Yaʼni taʼlimni individuallashtirishga qaratilmogʻi talab etiladi. Taʼlimni individuallashtirish nima? degan savolga javob beraylik:

a) taʼlim jarayonini individuallashtirish shunday oʻqitish usuliki, bunda har bir oʻquvchi oʻquv jarayonida faol ishtirok etib, oʻquv biluv jarayoniga shaxsiy hissa qoʻshishi hisobga olinadi;

b) taʼlim jarayonini tashkil etishda oʻqituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, oʻquvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;

c) oʻquv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda oʻquvchi shaxsi oʻquv biluv markazida boʻladi.(23,24)

Boshlangʻich taʼlimda oʻqitiladigan barcha oʻquv fanlari keyingi taʼlim bosqichlarida oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalar oʻzlashtirish samaradorligini taʼminlab beradi. Shu nuqtai nazardan bu davrdagi taʼlim jarayonini interfaol usulardan foydalangan holda tashkil etish dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

Ushbu muammo yuzasidan bir qancha chet el (D.N.Uznadze, L.S.Vgotskiy, A.N.Leontyev, S.A.Shmakov, G.K.Selevko, P.Ya.Galperin, A.A.Verbitskiy, S.Kallagan va boshqalar) va oʻzbek olimlari (I.Olloyorov,O`Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, N.N.Azixo`jayeva, R.H.Jo`rayev, J.Hasanboyev, J.G`Yo`ldoshev, N.Saidahmedov) ham koʻplab izlanishlar olib borishgan. Oʻz ilmiy izlanishlari orqali ushbu muammo yuzasidan koʻplab asarlar yaratilgan boʻlib, ushbu asarlarni oʻrganish jarayonida biz shuni kuzatishimiz mumkinki, ushbu asarlarda asosan yuqori sinf oʻquvchilari yoki talabalarning bilim saviyasini oshirishga qaratilganligi oʻz isbotini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlangʻich sinf yaʼni kichik yoshdagi oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ular uchun oʻqitishning interfaol usullarini ishlab chiqish bugungi kunda **engdolzarb muammoga** aylanib borayotganligi bitiruv malakaviy

ishimizni aynan shu muammoga qaratishimizga asos bo`ladi, desak mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu dolzarb pedagogik muammolar asosida biz bitiruv malakaviy ishimizni «**boshlang`ich sinflarda o`qitishning interfaol usullari**» mavzusida belgiladik.(30,34)

Tadqiqotning maqsadi: boshlang`ich sinf ta`lim jarayonida o`quvchilarning bilim saviyasini oshirishda interfaol usullarni qo`llashning afzalliklari, o`qitishning zamonaviy, interfaol usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: boshlang`ich sinflarda o`qitishning interfaol usullaridan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: boshlang`ich sinflarda o`qitishning interfaol usullaridan foydalanishning mazmun-mohiyati, uning zamonaviy shakl, vosita va usullarini aniqlash.

Tadqiqotning farazi: Boshlang`ich sinf ta`lim jarayonida o`quvchilarning bilim o`zlashtirish samaradorligi oshadi. Agarda:

- boshlang`ich sinf ta`lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning nazariy va amaliy holatini o`rganilsa;
- kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda interfaol usullardan foydalanishning mazmun-mohiyatini ochib berilsa;
- kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda interfaol usullardan foydalanishning samarali shakl, vosita va usullarini aniqlansa;
- tajriba-sinov ishlarida to`plangan ma`lumotlar asosida muammo yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda tadqiqotning maqsadi va qo`yilgan farazlar asosida quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- boshlang`ich sinf ta`lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning nazariy va amaliy holatini o`rganish;
- kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda interfaol usullardan foydalanishning mazmun-mohiyatini ochib berish;
- kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda interfaol usullardan foydalanishning samarali shakl, vosita va usullarini aniqlash;

- tajriba-sinov ishlarida to`plangan ma`lumotlar asosida muammo yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzu muammosini yoritishga qaratilgan ushbu vazifalarni bajarishda quyidagi **tadqiqot metodlaridan** foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni o`rganish; pedagogik kuzatish; anketa so`rovi; suhbat; intervyu; test so`rovi; tahlil qilish, umumlashtirish; pedagogik tajriba;

Tadqiqotning metodologik asoslarini O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta`lim-tarbiyaga oid fikrlari; Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta`lim-tarbiya to`g`risidagi Qonun va Qarorlari; «Ta`lim to`g`risidagi» Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Uzluksiz boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi; «Boshlang`ich ta`lim to`g`risidagi talablar»; DTS; «Maktab ta`limi to`g`risidagi Nizom va Konsepsiyalar» tashkil etadi.

Tadqiqot bazasi. Tadqiqotning bazasi sifatida Guliston shahar 6-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi xizmat qildi. Tajriba-sinov ishlari 15 nafar boshlang`ich sinf o`qituvchilari va 62 nafar 1 “D” va 1 “A” sinf o`quvchilarini o`z ichiga qamrab oldi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa va metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, umumiy hajmi _107_ betni tashkil etadi.

I bob. BOSHLANG`ICH SINFLAR TA`LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Boshlang`ich sinflarda ta`lim metodlari

O`qitishdan ko`zlanadigan maqsad bu davlat ta`lim standartlarida belgilangan bilim va ko`nikmalarini o`quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o`quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o`quvchi malaka oshirish uchun mo`ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o`qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblash bo`ladi.

Ma`lumki, **ta`lim olish** (ma`lumot olish) **jarayoni** – bu ma`naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta`lim oluvchining o`zi orqali yoki boshqa birov- ta`lim beruvchining ko`magida amalga oshirilishi mumkin. Ta`lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.(26,35)

Metod – grekcha “metodos” so`zidan olingan bo`lib, izlanish yoki bilish yo`li, nazariya, ta`limot ma`nosini anglatadi.

Ta`lim metodini(usulini) - ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchining ma`lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo`l-yo`rig`i sifatida ta`riflash mumkin.

Ta`lim modelini, esa bir yoki bir nechta ta`lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta`lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin.

Ta`lim metodi - bu ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchining ma`lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo`l-yo`rig`i.(16,30)

“Metod” yunoncha so`z bo`lib “ yo`l” ma`nosini anglatadi. Ta`lim metodi ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Ta`lim metodlari o`qitishning o`z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o`quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo`naltirish yo`llarini anglatadi.

O`qitish metodlari ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining qanday bo`lishi, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish vaolib borish kerakligini hamda shu jarayonda o`quvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Ta`lim metodlarini tasniflashni ko`plab olimlar turlicha bayon etib, o`z tasniflarini bayon etishgan. Quyida bu tasniflarni ko`rib chiqamiz.

I.Y.Lerner va M.N.Skatkin o`qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

S.I.Perovskiy va Y.Y.Golant tasnifi:

- faol;
- passiv.

Y.K.Babanskiyning tasnifi:

- o`quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- nazorat va o`zini-o`zi nazorat qilish metodlari;
- bilishga doir o`yinlar, o`quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag`batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

M.A.Danilov va B.P.Yesipning tasnifi ma`lum turdagi darslarda qo`yiladigan vazifalarga bog`liqdir:

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya tushuntirish, ma`ruza, suhbatlar, ko`rsatmali qo`llanmalarni namoyish etish.
2. O`quvchilarda ko`nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish – joriy kuzatishlar, og`zaki so`rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.(26,37)

Yuqoridagi olimlarning tasniflashlarini o`rganib chiqib, umumlashtirgan holda quyidagicha tasniflashni taklif etamiz.


Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo`lib, ularning har biri o`z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo`linadi. O`quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi, o`quv axborotlarining uzatilishi, qabul qilinishi, anglab olinishi, yodda saqlanishi, o`zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo`llanilishini ta`minlash, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishiga ko`ra ta`lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Verbal (o`quv axborotlarni so`z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari yoki og`zaki metodlar – hikoya, ma`ruza, suhbat va boshqalar);

O`quv axborotini ko`rgazmali uzatish va ko`rish orqali qabul qilish metodlari (ko`rgazmali metodlar – tasviriy, namoyish qilish vaboshqalar);


O`quv amaliyotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar-mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar).(30,36)

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga tayangan holda amaliyotda keng qo`llanilayotga uch guruh metodlarini tasvirda shunday ifodalalash mumkin:



Og`zaki bayon qilish metodi maktab ta`lim tizimida eng ko`p qo`llaniladigan metodlardan biri bo`lib, mazkur metodga barcha o`quv predmetlari bo`yicha ta`limning turli bosqichlarida murojaat qilish mumkin.

Ushbu metod bayon qilinayotgan ma`lumotlarning to`g`ridan-to`g`ri o`qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko`ra ta`limning boshq metodlaridan farq qiladi hamda quyidagi 5 turda qo`llaniladi:



Hikoya qilish ijtimoiy-gumanitar predmetlarni o`qitishda keng qo`llaniladi. Hikoya qilish o`qituvchi tomonidan yangi o`tilayotgan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo`lib, obrazli tasvirlash yo`li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilishdir (bayon qilish boshlang`ich sinflarda 10-12daqqa bo`lishi lozim).

Hikoya qilish davomida o`quvchilar o`quvchilar passiv tinglovchi bo`lib qolmasliklari aksincha, ularning faolliklarini oshirish, diqqatlarini mavzuga jalb etish, hodisa va voqealar xususida fikr yuritishlarini ta`minlash maqsadida savollar berib borish, ko`rgazmali qurollardan foydalanishga alohida e`tabor berish zarur.

Maktab ma`ruzasi - bir soatlik mashg`ulot davomida o`rganilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan g`oyalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish v ularni umumlashtirish asosida bilimlarni muayyan izchillikda bayon etishdir.(30,38)


Maktab ma`ruzasi asosan yuqori sinflarda qo`llaniladi. Ma`ruza jarayonida mavzu sidirg`asiga bayon qilinsa ham, o`quv materialini og`zaki bayon qilish metodining boshqa tulari, xususan, hikoya qilish va tushuntirishlardan ham foydalanish mumkin.

Ma`ruza jarayonida o`quvchi uchun notanish bo`lgan so`z va iboralarga izoh berib borish, qoida va qonunlarning ta`rifi sodda, ixcham va tushunarli tarzda ifodalanishiga e`tibor berish lozim.

O`quv materialini tushuntirish o`rganilayotgan hodisa, qonun, qoida yoki harakatning mohiyatini ochib berishga qaratiladi.

O`qituvchi muayyan bir predmatning u yoki bu mavzusiga oid qonun, qoidalar qanchalik asosli ekanligini dalillar, misollar keltirish yo`li bilan isbotlab beradi.

Maktab ma`ruzasi quyida keltirilgan talablar asosida tashkil etiladi:



Suhbat metodi aksariyat holatlarda savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki, ushbu metod asosida ta`lim jarayonini tashkil etish asosan savol-javob tarzida olib boriladi. Suhbat metodi o`quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltiradi, shuningdek, berilgan savolga javob topish jarayonida o`quvchi fikr yuritadi, shaxsiy fikrlarini bayon etadi, uni dalillashga urinadi. Bu esa ularda fikrlash ko`nikmalarini takomillashtiradi.(16,30,39)

Ta`lim jarayonida o`rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo`llaniladi. O`quvchilar tomonidan yangi mavzuning qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash maqsadida ham suhbat tashkil etiladi.

Mashg`ulotlar jarayonida o`qituvchi suhbat metodidan foydalanganda quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:


- o`quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi;
- o`qituvchi suhbat uchun tayyorlab kelgan savolarni sinf o`quvchilarining barchasiga taalluqli bo`lib, savol o`rtaga tashlanishi kerak;
- sinfning barcha o`quvchilari javob berayotgan o`quvchini qunt bilan tinglashlari, uning javobini to`ldirishlari, tuzatishlari, oydinlashtirishga yordam berishlari lozim;
- berilgan savolga javob to`g`ri yoki to`liq bo`lmasa, shu savol navbatdagi 2-yoki 3-o`quvchidan so`ralishi mumkin;
- agarda savol yuzasidan javob berish istagida bo`lgan o`quvchilar soni ko`payib ketsa, u holda o`qituvchi va sinf o`quvchilari javobdan qanoat hosil qilganlaridan so`ng navbatdagi savol o`rtaga tashlanadi;
- o`quvchilarning javoblari qay darajada tog`ri yoki noto`g`rib o`lishidan qat`iy nazar, o`qituvchi tomonidan izohlanishi va baholanishi zarur.

Darslik yoki manba bilan ishlash - materialni og`zaki bayon qilish metodining asosiy turi bo`lib, maktab amaliyotida muhim o`rin tutadi.(14,16,39)

O`quv adabiyotlari bilan ishlash murakkab psixologik jarayon sanaladi. U ta`lim jarayonida o`qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan bilimlar, axborotlarni kitob matnidan ko`rib, ongli idrok qilish faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta`lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o`quvchilarda kichik tadqiqotlarni olib borish ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Darslik va kitob bilan ishlash ikki yo`nalishda olib boriladi:




Ta`limda ko`rsatmalilik metodining quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Ko`rsatmalilik metodining turlari		
Tasvirlash	Namoyish etish	Ekskursiya

Namoyish etish hamda ekskursiya o`quvchilarning o`quv materiallarini aniq obrazlar vositasida bevosita bevosita idrok qilishlarini ta`minlashda muhim ahamiyatga ega.(30)

Namoyish etish metodi o`qituvchi tominidan bayon qilinayotgan ilmiy-nazariy bilimlarning o`quvchilar tomonidan puxta o`zlashtirishi uchun ularning sezgi organlari – eshitish, ko`rish, hid va ta`m bilish, teri sezgilarining bir obyektga alohida-alohida yoki bir necha sezgi a`zolarini bir yo`la safarbar qilishga

imkon beradi. Namoyish etish metodi mavzuning xususiyatiga ko`ra quyidagi ikki ko`rinishda qo`llaniladi:



Ta`lim metodlarini ta`lim maqsadlariga erishish bo`yicha o`quvchi va o`qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilishning belgilari bo`yicha quyidagicha guruhlarga bo`lish mumkin:

- o`qituvchi markazda bo`lgan uslublar;
- o`quvchi markazda bo`lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar.

Odatda ushbu uslublardan biri yoki bir nechtasi ayrim o`qitish modellarida birvarakayiga foydalaniladi. Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy uslublardan tashkil topadi va bu uslublar dars mavzusiga to`la muvofiq bo`lib, o`quvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo`llaniladi.(16,36)

O`qituvchi markazda bo`lgan uslub. Bu uslub orqali o`qituvchi o`zi egallagan ma`lumot va ko`nikmalarni o`quvchilarning sezgi organlari orqali uzatish yo`llarini qidiradi. Bunda o`quvchilarning ishtiroki passiv bo`ladi, ya`ni ular tinglaydilar, kuzatadilar va ma`ruzalarni yozib boradilar.

Bu uslublar asosan o'qituvchining qo'yidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

Og'zaki o'qitish usuli (ma'ruza, hikoya)

Insonlar o'rtasidagi eng sodda muloqot yo'llaridan biri – og'zaki nutq – og'zaki ta'rif yoki asosiy mazmunning ogzaki ifodasi hisoblanadi. Bu uslub butunlay «so'zlash» orqali amalga oshiriladigan o'qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o'quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi. Bunda asosan o'quvchining eshitish qobiliyati ishga solinadi.

Tasviriy ifodalarni qo'llash usuli (illustratsiya)

Bu faoliyat orqali yetkazilishi kerak bo'lgan bilim yoki malakalarni tasvirlovchi rasmlar orqali o'quvchilarning ko'rish qobiliyati ishga solinadi. O'quvchilarga yetkazilmokchi bo'lgan ma'lumotlar tasvirlab berish orqali, turli simvollar yordamida yetkaziladi. Bunday tasviriy ifodalar quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: doska, maxsus oq doska, flipchart, video tasvir, videoproyektor, kodoskop, kompyuter grafiklar, magnit taxta, rasmlar, suratlar, bo'yoqli rasmlar, grafik va jadvallar, diagrammalar, namunaviy va maxsus shaffof qog'ozga tushirilgan tasvirlar.

Namoyish etish usuli (demonstratsiya)

O'qituvchi ma'lum bir asbob yoki jihozdan foydalanish vazifasini yoki topshiriqqa aloqador harakatlarni namuna sifatida namoyish etib berishi mumkin. Yakka holda namoyish etish o'quvchini ko'rish qobiliyatidan foydalanishga undaydi.

O'quvchi markazda bo'lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar. Bu uslublar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchini yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimni ham e'tiborga olinishi;

- o‘qish shiddatini o‘quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi.
- o‘quvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o‘qishni sog‘lom muhitda saqlab qolinishi;
- o‘qituvchining yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

O‘quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o‘quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo‘ladi.(22,32)

Bu uslublar asosan o‘qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi. quyida ularning ba’zilar ustida qisman to‘xtalamiz.

Savol berish orqali o‘qitish usuli

O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.

Muhokama usuli

O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.

Suhbat usuli

Mavzuga aloqador manbaviy ma’lumotlar beriladigan bir sharoitda va darsning bir qismi sifatida ana shu mavzu haqida tushuntirish berish muhim hisoblanadi. Odatda ma’ruza vaqti 30 daqiqadan uzoq bo‘lmasligi kerak va asosiy vaqt ma’ruza ta’riqasida va mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchiga savollar berish uchun bir oz vaqt ajratiladi.

Guruhlardagi muhokama usuli

Ushbu o‘qitish uslubi o‘qituvchining juda oz «so‘zlashiga» imkoniyat yaratadi va vaqtning asosiy qismi o‘quvchilarning o‘zaro muhokamalariga bag‘ishlanadi. qachonki o‘quvchilar mavzu haqida qandaydir darajada bilimga ega

bo'lsalar bu uslubdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xatto mavzu haqida tasavvurga ega bo'lmagan holda, yoki mashg'ulotlar avvalida o'rganilgan bilimni takrorlash uchun ham foydalanishlari mumkin.

Yangilik kashf etish orqali o'rganish usuli

Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. O'rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
2. O'rganish jarayoni ma'lum bir topshiriqqa yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
3. Topshiriq quyidagilarni ta'minlaydi:
 - tayanch ma'lumot olish uchun asos;
 - o'quvchi uchun notanish bo'lgan ma'lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so'rovga e'tibor berish;
 - oldindan aniqlangan va sog'lom tarzdagi o'rganishga asoslangan natijalar.
4. Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.
5. Guruhdagi hamkorlik:
 - fikr va faoliyatni rag'batlantiradi;
 - mushohadaga chorlaydi;
 - guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlaydi.
6. Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchining qo' shajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan.
7. O'qituvchi asosan o'qish jarayonini yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini o'taydi. Kamdan-kam hollarda o'qituvchi ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Amaliy mashg'ulot

O'qituvchi bir guruh o'quvchilarning ko'nikmalarini to'liq yoki qisman shakllantiruvchi amaliy faoliyat orqali o'qitishni xohlasa bu usuldan foydalanishi mumkin. Odatda bu jarayon o'z ichiga so'zlash, tasviriy ifoda va o'qituvchi

tomonidan namoyish etish va muhokamalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon materiallar va maxsus jihozlardan foydalanish imkoni bo'lgan ustaxonalarda amalga oshiriladi.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, o'quvchilar nafaqat rasmiy o'qitish orqali o'rganadilar, ya'ni kitoblar, gazeta va jurnallar, televideniye, internet va sinfdosh do'stlar orqali, balki ko'proq bevosita aloqa orqali o'rganadilar. Bu vositalar o'kituvchi o'tgan darsni mustahkamlashda foydalanilishi mumkin.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan ham foydalanish mumkin:

Baxs-munozara usuli

O'quv guruhini ikki guruhga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

Tadqiqot usuli

O'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qqisi; o'quvchilarning olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi; keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish; Bosqichlari: darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan muammoni yoki masalani qo'yish, uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash, muammoning yechimiga oid taxminlar, bashoratlar qilish va ularning qanchalik to'g'riligini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish; Ta'lim oluvchilar ayrim tadqiqot ishlarni ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishadi, ularni yozadilar va qo'yilgan maqsad va natijalarni tahlil qiladilar.

Rolli o'yinlar

Ishbilarmonlik yoki rolli(vaziyatli) o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Bosqichlari: vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo'lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish; o'yin davomida o'quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatib borish; o'quvchilarning hatti-harakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallashlariga

imkoniyat yaratish; o‘yin natijalarining tahlili; o‘yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash;

Loyiha usuli

Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta’limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o‘quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar. Ta’lim oluvchilar ayrim kichik loyiqa ishlarini, diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda loyihalashtiradilar, mustaqil bajaradilar, ularni yozadilar, taqdimot qiladilar, qo‘yilgan maqsad va natijalarni tahlil qiladilar.

Mustaqil o‘rganish usuli

Ushbu usul ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini, o‘z – o‘zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to‘liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqti–vaqti bilan o‘tkazib turiladi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, darslik bilan ishlash va mustaqil amaliy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir o‘quvchi alohida yoki umumiy tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yo‘naltirib boshqaradi va nazorat qiladi.

Aqliy hujum

Dars mavzusiga oid qo‘yilgan muammoni yechish yoki savolga javob topish maqsadida g‘oyalarni jamlash va saralash usuli. qatnashchilar birlashgan holda yechimi noma’lum muammoni yechishga yoki savolga javob topishga harakat qiladilar. Eng maqbul yechimni topish bo‘yicha shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar. Bosqichlari: muammoli vaziyatni keltirib chiqarish; uning yechimini topish uchun o‘quvchilarni jalb qilish; turli yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosalash;

Pinbord usuli

Bu usul aqliy hujum metodining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda qo‘yilgan muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalar alohida qog‘ozchalarda yozilib, doskaga

mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar bo'yicha sinflarga bo'linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.

Boshqalarni o'qitish orqali o'rganish usuli

Bu usulda ta'lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo'yilgan muammo bo'yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o'z bilganlarini boshqalarga o'rgatadilar.

Lug'at bilan ishlash (diktant)

Bilimlarni baholashning joriy nazorat shakli; odatda qisqa vaqt davomida o'tkaziladi; o'quvchilarning o'tilgan atama va tushunchalarni bilish darajasini tekshirish uchun o'tkaziladi;

Konferensiya

Oraliq nazoratning bir turi bo'lib, asosan chorak yoki yil davomida ma'lum mavzular bo'yicha mustaqil yozilgan ishlarning og'zaki ma'ro'za ko'rinishidagi taqdimoti.

Juft-juft muloqot

Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarni o'zaro muloqotga chorlash; o'zaro fikr almashish va ularni ba'zilarini tinglash;

Ovozga qo'yish metodi

Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo'yicha ovozga qo'yish; har bir fikr bo'yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so'ng yana ovozga qo'yish; xulosalash;

«Charxpalak» usuli

Mazkur metod guruhlarda ishlash usulining takomillashtirilgan ko'rinishi bo'lib, uning yordamida o'quvchilar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lish, jamoa bilan ishlash malakasini ega bo'lish, boshqalarni o'qitish, axborot bilan almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.(17,31,38)

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari xam takomillashib bormoqda. Hozirgi inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qilina boshladi.

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyaning mazmuni esa o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy haqiqatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iborat.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha "ta'lim texnologiyasi" deb qo'llanilib, o'quv jaroyonida texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.(24,33)

Pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, uning o'quv jaroyonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda tutilib, ta'limdagi o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan bu tushuncha o'quv jarayonining o'zini ko'rish texnologiyasini bildiradi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning ham turli ta'riflari mavjud:

Texnologiya-biror ishda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi.

Pedagogik texnologiya - o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat. (b. T. Ligachyov)

Pedagogik texnologiya - ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti.

Pedagogik texnologiya-o`quv jarayonining o`quvchilar va o`qituvchi uchun so`zsiz qulay sharoitlar ta'minlash, tashkil qilish, o`tkazish bo`yicha hamma detallari o`ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V. M. Makaxov)

Pedagogik texnologiya - bu o`qituvchining o`qitish vositalari yordamida o`quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko`rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldinda belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir. (N. Saidaxmedov)

Pedagogik texnologiya - bu o`qitishda o`ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B. L. Farberman)

Hozir ta'lim-tarbiya rivojlanib borayotgan yo`nalishlaridan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llash bo`lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ma'lumki ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o`z bilim va tajribalarini o`sib kelayotgan avlodga o`rgatishdan iborat bo`lib, bu jarayonda inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshiriladi.(24,35)

Ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni o`qituvchining o`quvchiga yetkazayotgan bilim saviyasining samaradorligini tashkil etadi. Shunday ekan, o`qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglagan holda, uni asos qilib, yangicha metod va usullar orqali dars o`tishi zarurdir.

Garchand, fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda san'at va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishning qiyofasini tubdan o`zgartirib yubormoqda.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi ko`pgina kasblar faqat ma'lumotli kishilarnigina emas, yuksak rivojlangan ijodiy qobiliyatga ega kishilarni jalb qilishni talab qilmoqda.

O`quv jarayoniga tadbiiq etilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda umumiy o`rta ta'lim muassasalari uchun yaratilgan "Davlat ta'lim standarti"da o`quvchilarning bilishlari zarur bo`lgan majburiy bilimlar hajmi aniq

ko`rsatilgan. Ularni o`quvchilarga yetkazish , o`quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o`qib olish va ijodiy izlanishga yo`naltirish, o`zlaridagi qobiliyatni rivojlantira borish ko`nikmalarini orttira olish uchun o`qituvchilar yangi pedagogik texnologiya asosida pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana olishlari zarur bo`ladi.

Yoshlarga ta`lim-tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o`qituvchining g`oyaviy e`tiqodi, kasb mahoratiga, san`ati, iste`dodi va ma`naviyatiga hal qiluvchi darajada bog`liqdir. Haqiqatdan o`qituvchisiz jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini tasavvur etish qiyin. (6,12)

Ta`lim-tarbiya jarayonini turli tashkil etish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o`qituvchilarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir.

Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o`quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o`quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o`rgatishdan iboratdir.

Biz o`qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o`quvchilardan fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko`zda tutamiz.

Hozirgi zamon darsi 3 ta maqsadni: ta`lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarini ko`zda tutadi.

Hozirgi zamon darsiga qo`yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslangan bo`lishidir, ya`ni darsdan ko`zlangan maqsad hamda o`quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o`tiladigan mavzu bilan bog`lash o`quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarni ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo`ladigan jihozlarni belgilash va ko`rgazmali qurollar bilan boyitish, qo`shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishdir. (13,34)

Darsga qo`yiladigan asosiy talablardan biri –ta`lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog`lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Darsga qo`yiladigan asosiy talablardan yana biri - barcha didaktik vazifalar darsning o`zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o`quvchilarning darsda oladigan bilimlarining mantiqiy davomi bo`lishi kerak.

Dars davomida o`qituvchi o`quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O`tilgan har bir darsning o`quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi.

Eng asosiysi o`quvchi dars o`tishi innovatsion usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi.(17,35)

O`zbekiston davlat ta`lim siyosatida o`qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo`llay olishi, o`quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko`nikma, malakalarini hosil qila olishi zamon talablaridan biridir.

Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so`zidan olingan bo`lib, «Interakt», ya`ni, Inter — bu «o`zaro», «akt» — harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini bildiradi.

Interfaol metod – ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati, ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaollik – o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o`quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro fikr almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol metodlar o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muammoli

vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.(18,30)

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'yin texnologiyalaridan tashqari interfaol metodlardan "Aqliy hujum", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Savol bering", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar", "Pinbord", "Bumerang", "Skarabey", Roven diagrammalari", "Blits-o'yin", "Klaster", "Loyihalash", "Zanjir", "Insident", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Debat" kabilarni sanab o'tish mumkin. Bu metodlar sinfda o'rganiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni yaratishga, mavzuni muhokama qilish asosida bahs – munozara orqali muammo yechimini topishda yaqindan yordam beradi.(18,37)

1.2. Boshlang`ich sinflarda o`qitishning interfaol usullari tasnifi

Ta'lim tizimini isloh qilishda «Ta'lim to'g'isida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur hujjatlarda ta'lim tizimini bosqichma bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida Yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. «Biz nafaqat siyosiy jabhani, balki iqtisodiyotni ham, ijtimoiy hayotni ham, ma'naviy-axloqiy sohani ham isloh qilishimiz zarur. Bu g'oyat keng ko'lamdagi islohotlar bo'lib, biz ularni kompleks tarzda hal qilish orqaligina o'z maqsadlarimizga erisha olamiz» - deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz Islom Karimov. Yangicha ta'lim tizimini qurish, pedagogik jarayonga Yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, o'quvchi-yoshlarni, talabalarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish, pedagogik jarayonlarda noan'anaviy, qiziqarli, faol innovatsion usullarni qo'llashni hozirgi kun talabi taqozo qilmoqda. Xo'sh pedagogik jarayonlarda bu usullardan qanday foydalanish kerak? Noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovatsion usullarning qanday turlari mavjud? Mazkur savollarga beriladigan javoblar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi.(7,12,13,15)

O'quvchilar bilan yangi mavzuni o'rganishga kirishar ekan, boshlang`ich ta'lim o'qituvchisi oldida har doim savol tug'iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik materiallardan foydalanish kerak, o'quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim.(22,23)

Umumiy holda metodning tanlanishi ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasida faoliyat turlari o'zgarib, o'zaro almashinib turadi. Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o'qitish metodlari ham o'zaro chog'ishtiriladi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.(31,32)

Pedagogikada an'anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir . Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi , chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir .

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi . Shu bousdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz . Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa , boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi .

Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi , ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir .

Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim.Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.(17,32)

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi - ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. Darvoqe, o'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi.

Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi. Ma'lumki, pedagogik texnologik ham ma'lum qonuniyatalar asosida loyihalanadi va o'quv jarayonini tashkil etishga asos yaratadi, joriy qilingach esa yakuniy natijani, talabaning u yoki mavzuni mustaqilligini ta'minlaydi. (32,36)

Ta'limning umumiy maqsadidan kelib chiqib o'qitishning ayni bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalarni yechish zaruratni hisobga olgan holda ajratilgan variant tahlillanadi va baholanadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;(30,39)

“Fikriy hujum” metodi o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash,ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish ,muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash,shuningdek,ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabli bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib,uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash,har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir.Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va mufaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.”Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.(33,35)

“Yalpi fikriy hujum” metodi J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib,uni bir necha o'n nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladei.Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haiqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi.Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarininig faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi 20-maktabning boshlangich sinf o'qituvchisi Xidirova M.ning fikricha, pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Bu haqda yurtboshimizning quyidagi so'zlari ibratlidir:

“Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.(4,8,34)

Shunday ekan, biz boshlang'ich ta'limda bolalarning erkin fikrlashlari uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishimiz lozim.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangiliklar yaratishdir. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayoning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish

innovatsiya deyiladi. Ta`limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o`quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta`lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. (24,25)

Ta`lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o`qituvchi o`zining ish shakllari va o`quvchilarning ko`nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o`qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko`proq interaktiv metodlarga e`tiborni qaratish ta`lim samaradorligini oshiradi. Interaktiv usullar – bu ozaro harakat, ya`ni hamkorlik asosida o`qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o`yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o`yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o`qitish, bevosita faoliyat.

Interaktiv mashg`ulot jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilarni qamrab oladi:

1. Salomlashish (o`qituvchi va o`quvchilar);
2. Kirish so`zi – o`qituvchi o`quvchilarni ta`limning interaktiv metodikasi, mashg`ulot mavzusi, shakli va maqsadlari bilan tanishtiradi;
3. Qoidalarni ishlab chiqish – guruhning samarali ishlashi uchun qoidalarni belgilashda o`quvchilarning fikri tinglanadi;
4. Tanishuv – o`quvchilarning darsda o`zaro erkin va faol muloqotlarini ta`minlash maqsadida har turli harakatli mashqlarni tashkil qilish orqali o`tkaziladi;
5. Kutiladigan natijalar – har bir o`quvchi mashg`ulotlar yakunida nimalarni o`rgangani, qanday ishlarni bajara oladigan bo`lgani haqida ma`lumot berishi lozim;

6. Kichik guruhlarga ajratish – mashgʻulot maqsadiga muvofiq ravishda oʻquvchilar bir nechta kichik guruhlarga ajratiladi.

7. Kichik guruhlar ishini tashkil qilish – har bir kichik guruhga aniq vazifa, zarur materiallar, vositalar taqdim qilinadi, vazifani bajarish, natijani maʼlum qilish tartibi va ajratilgan vaqt belgilanadi;

8. Taqdimotlar – kichik guruhlar oʻzlariga vazifalarni bajargandan keyin, olingan natijalarni ular belgilagan vakil tomonidan barcha guruhlar aʼzolari oldiga taqdimot qiladilar;

9. Kichik maʼruzalar – interaktiv mashgʻulot mavzusi boʻyicha oʻquvchilarga nazariy maʼlumotlarni yetkazish maqsadida oʻqituvchi, maʼruzachi yoki oʻquvchi tomonidan oʻtkaziladi;

10. Muhokamalar oʻtkazish – dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish va xulosalar chiqarishga yoʻnaltirilgan interaktiv mashqlardan iborat.

11. Xulosalar va vazifalarni belgilash - mashgʻulot davomidagi xulosalarni jamlash va umumlashtirish hamda oʻquvchilar uchun navbatdagi vazifalarni belgilab berishdan iborat;

12. Mashgʻulotni yakunlash - mashgʻulotdan qoniqqanlik darajasini har bir oʻquvchi tomonidan baholash har turli interaktiv shakllarda tashkil etiladi.

Interaktiv mashgʻulotning asosiy usullari: interaktiv seminar, maʼruza, aqliy hujum, ishchanlik oʻyini, rolli oʻyin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, zanjir, sinkveyn, suratli diktant, chigilyozdi, muzyorar va boshqalar.(23,30)

Interaktiv mashgʻulotlarning hammasida ham oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati oʻrtasidagi hamkorlik, oʻquvchining taʼlim jarayonidagi faol harakati nazarda tutiladi.

Oʻqitish jarayonlarida noanʼanaviy taʼlim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «Oʻyinchoqlar yordamida dars oʻtish», «Kasbga bogʻlab dars oʻtish», «Badiiy adabiyotlarni oʻrganish va tahlil qilish», «Evrika(oʻylab top)»; taʼlimning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Rolli oʻyinlar», «Sahna koʻrinishi», «Krossvordlar yechish»,

«Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish», «Sinkveyn o'yinlari»; shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari: «Modifikatsiyalashgan ta'lim», «Improvizatsiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish», «Har kim har kimga o'rgatadi», «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Multimedia vositalaridan foydalanish» va boshqalarni qo'llash muhimdir.(25,31,35)

Improvizatsiya – tayyorgarliksiz bayon etish usuli bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga savol yoki topshiriq beradi va darhol uning javobini tayyorgarliksiz tushuntirib berishlarini so'raydi. Bu usulning afzalligi shundaki, o'quvchilar o'z shaxsiy fikrlariga, dunyoqarashiga ega bo'ladilar, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi, har bir savol-topshiriqlarni xotirada tez-tez tahlil qila olish ko'nikmalari shakllanadi.

Yuksak darajadagi aqliy va ijodiy harakatni talab qiladigan **“Aqliy hujum”** metodini o'tkazishdan oldin metodni o'tkazuvchi qatnashchilar uchun yetarli darajadagi qulay tashqi muhitni yaratish lozim bo'ladi: ularni qulay joyga o'tkazadi, xonani shamollatadi, sokin musiqadan foydalanadi, g'oyalarning generatorlariga kofe yoki salqin ichimliklar ulashadi va hokazo. Qatnashchilarning aqliy va emotsional holatini ko'tarish uchun “Aqliy hujum” rahbari yetarli darajada erkin va demokratik holda auditoriya bilan muomala qiladigan bo'lmog'i lozim. Aqliy toliqishni oladigan psixologik mashqlarni o'tkazish mumkin. Masalan, maxsus bo'limlar talab qilinmaydigan masala yoki vaziyatlarni yechish mumkin.

Shundan keyin “Aqliy hujum” metodini o'tkazishning bevosita shartlariga o'tish mumkin bo'ladi. ekranda: - maqsadlar, reja va qoidalar aks ettiriladi.

Bu tadbirlarni amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.(22,32)

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil yetadi. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil yetishi taqozo yetiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

“Aqliy hujum” metodining shiorini tanlash. Iloji boricha “Aqliy hujum”ning shioridan foydalangan ma`qul. Chunki aynan shu shior mutaxassislar komandasini g`oyalarning tezlik bilan tug`ilishiga jalb qiladi. Metodni o`tkazuvchi ekranda bir qancha shiorlarning variantlarini tavsiya qiladi. Masalan,

1. Biz masalani echamiz va muammolar qolmaydi!
2. Muammo o`ta murakkab, biz uni hal qilamiz!
3. Har qanday muammo yagona to`g`ri echimga ega. Agar biz unitopolma sak dahshat bo`ladi!
4. Har qilinmagan muammo asabni taranglashtiradi, kayfiyatni tushiradi, vijdonni qiynaydi. Vahima bizga yarashmaydi!
5. Muammolarni hal qilish ko`nikmasini shakllantiramiz!

Modellashtirish.

O`qitishning bu usuli o`z ichiga real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o`z ichiga oladi.

Qo`llanilishi:

- turli vaziyatlarda kerak bo`ladigan ko`nikmalarni qo`llashda;
- oddiy va murakkab mehanik va elektrik asboblari yasashda, operativ ko`nikmalar va qaror qabul qilishni amalga oshirishda.
- xavfli va kechiktirib bo`lmaydigan vaziyatlarda, boshqarish ko`nikmalarini mustahkamlashda;
- ilgari o`rnatilgan printsiplarni real hayotiy vaziyatlarda qo`llashda.


Afzalligi:

- o`quvchilar faolligi va jalb qilishning mustahkamlaydi;
- eslab qolishni kuchaytiradi.(23)

“Klaster” metodi. “Klaster” (g`uncha, bog`lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, u o`quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o`ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar to`g`risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob`ektga yo`naltirilmagan fikrlash shakli

sinaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog`liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o`quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.(37)




“Klaster” metodining qoidalari

“Qarorlar shajarasi” (“Qarorlar qabul qilish”) metodi

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o`quvchilari ishtirokida qo`laniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o`n nafar o`quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o`quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



“Qaror shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`laniladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O`qituvchi o`quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilish, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qaror qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a`zolari bir to`xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh

a`zolari o`z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o`qituvchi rahbarligida barcha o`quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug`ilgudek bo`lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo`lsa, o`qituvchi buning sababini izohlaydi.(17)

Innovatsiya – lotincha so`z bo`lib «yangilikni kiritaman, tadbqiq etaman, o`zgartiraman» degan ma`nolarni bildiradi.

Innovatsion usullar:

1. Modellashtirish. (treynirovka)
2. Namoyish qilish.
3. Kichik guruhlarda ishlash.
4. Aqliy hujum.
5. Tanqidiy tafakkur.
6. Debatlar.
7. Nuqtai nazaring bo`lsin.
8. Har kim har kimga urgatadi.
9. Rolli o`yinlar.
10. Muayyanholatni (vaziyatni) o`rganish.
11. Modifikatsiyalangan ma`ruza.
12. O`yinlar.
13. Bingo.
14. Axborot texnologiyalari (kompyuter) yordamida.

Namoyish qilish.

Demonstratsiya- «kursataman, isbotlayman» degan ma`noni anglatadi. Bu o`qitishning usulida o`qituvchi topshiriqni bajarib, o`quvchilarga bu topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko`rsatadi. Bu o`qitishning usulidan so`ng o`quvchilarga topshiriqni bajarib ko`rish imkonini berish kerak.

Qo`llanilishi:

- topshiriqni qanday bajarishni ko`rsatish uchun;
- muammolarni hal qilishga o`rgatishda;
- texnik vositalar va asboblarni bilan ishlashni o`rgatishda.

Afzalligi:

- o`quvchi o`z ko`zi bilan ko`radi;
- tushunish va eslab qolishga yordam beradi;
- qiziqishni oshiradi;
- o`qitishning juda faol shakli ekanligi.

Rolli o`yinlar.

O`qitishning bu usulida o`quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o`z amaliy ish faoliyatlarida qo`llash mumkin bo`lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko`rish va tekshirish imkonini beradi.

Qo`llanilishi:

- yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini kursatishda;
- o`quvchilarni nazariyani amaliyotda qo`llab ko`rishga o`rgatishda;
- o`quvchilar faolligini yanada oshirishda.

Afzalligi:

- « real hayot » ning qayta tiklanishi;
- o`quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;
- o`quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko`rish imkonini

berish. (32)

Guruh munozarasi:

O`qitishning bu usuli o`quvchilarning o`zaro muloqoti va fikr almashinuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki muammo ishlab chiqiladi.

Qo`llanilishi.

- qiziqishni kuchaytirish va o`ylash, fikr yuritishga chorlashda;
- ma`ruza, o`qish va boshqa usullarni mustahkamlashda;
- mashg`ulot mazmunining asosiy qismini ishlab chiqishda;
- muammoning ko`zda tutilgan qarorini ishlab chiqishda;

- yakun yasash yoki tekshirishni amalga oshirishda;
- mavzu tushunarligini baholashda;
- o`quvchilarni kelgusi darsga tayyorlashda.

Afzalligi:

- o`quvchilarda qiziqishni orttiradi va darsga jalb qilinishini mustahkamlaydi;
- o`quvchilar fikr va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Modifikatsiyalangan shakli o`zgartirilgan ma`ruza.

Bu o`qitish usulida o`qituvchi mavzu mazmunini og`zaki nutq orqali o`quvchilarga yetkazadi, formulalar chiqarishda o`quvchilar bilan muloqot olib boradi. Ammo an'anaviy ma`ruzadan farqi o`qituvchi va o`quvchi orasida muloqot ketadi.

Qo`llanilishi:

- o`quvchilarga umumiy axborot berish uchun;
- fanga kirish va asosiy materiallarni berish uchun;
- qaysidir turdagi faoliyatni boshlashdan oldin, namoyish qilish, roli o`yin va boshqa turdagi usullarni qo`llashdan oldin;
- ta`rif, qoida, formulalarni masala yoki laboratoriya ishlarida qo`llashni namoyish qilish uchun.

Afzalligi:

- tezkorlik bilan amalga oshirilishi;
- katta guruhlarda samaraliligi;
- kam resurslarni talab qilishi;
- boshqa usullar bilan birgalikda qo`llash mumkinligi;
- vaqtni yengil boshqara olishi;

Guruhni birgalikda ishlash imkonini beradi. (23)

Muayyan xolatni (vaziyatni) urganish.

Bu o`qitish usuli real hayotdagi vaziyatni batafsil muhokama qilishdan iboratdir. Bu usul kichik guruhlarda o`tkazilib, o`qish, o`rganish, tahlil qilish,

muhokama va erkin fikr almashish hamda qaror qabul qilish va bu qarorni boshqalarga yetkazishni taqozo etadi.

Qo`llanilishi:

- dars mazmuni haqida har tomonlama o`ylab so`zlashga o`rgatishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini, tanqidiy fikrlash va fikr yuritishni shakllantirishda;
- boshqaruv tamoyillarini namoyon qilishda.

Afzalligi:

- o`quvchilarning faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi.
- ta'lim olish tugagandan so`ng taqozo qilinadigan ijroni modellashtirishga imkon beradi;
- o`qitishni kuzatish mumkinligini.

Tanqidiy tafakkur.

Tanqidiy tafakkur uslubi o`qituvchi qo`ygan masala yoki muammoni o`quvchi o`z fikrini bayon qilish, o`z galar fikrini tanqidiy qayta idrok etish, o`z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal qilish imkoniyatiga ega bo`lishiga asoslangandir.

Qo`llanilishi:

- o`quvchiga o`z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat berilishida;
- o`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda turli nuqtai nazarni muhokama qilish jaroyonida;

Afzalligi:

- o`quvchi o`z fikrini asoslaydi;
- ta'lim oluvchilarga erkin so`zlash imkonini beradi.(25)

Aqliy hujum.

Aqliy hujum – sinfdagi har bir o`quvchi oldiga o`qituvchi qo`ygan savol yoki muammo yuzasidan o`z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o`quv uslubidir. Uslub mohiyati «Bir kalla yaxshi, yigirma bittasi undan yaxshi» printsipli bo`yicha o`qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol

tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo`lib, istesno tariqasida ta`lim oluvchilarning barcha fikrlari, shu jumladan, aytarli to`g`ri bo`lmaganlari ham inobatga olinadi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o`quvchilarning qo`yilgan savol yoki muammoni to`g`ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo`llanilishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;
- fanga kirish va asosiy mavzu mazmunini bilib olishda;

Afzalligi:

- aytilgan fikrlar tanqid yoki muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi o`quvchilarning mazmunining ilmiyligiga chuqurroq jalb qilinishi;
- belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o`z fikrlarini bayon etish imkoniyatining berilishi.

Har kim har kimga o`rgatadi.

«Har kim har kimga o`rgatadi » uslubi o`quvchilarga o`rgatuvchiga aylanish, ma`lum bilimlarni o`zlashtirgach, o`rtoqlari bilan baham ko`rish imkonini beruvchi o`qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o`quvchilarga o`qitish jaroyonida zarur bo`lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o`quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg`otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o`quvchi ma`lum vaqt davomida uni iloji boricha ko`proq o`rtoqlariga yetkazadi.

Qo`llanilishi:

- o`quvchilada axborot olish va berishga qiziqish uyg`otish uchun;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun.

Afzalligi.

- o`z fikrini lo`nda bayon etishi;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirish;
- fanga yoki mavzuga bo`lgan qiziqishni uyg`otish.

Debatlar.

Debatlar – o`z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o`quvchilarning bahslashuvda faol ishtirok etishini ta`minlovchi o`qitish uslubidir. Bu uslubdagi foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O`quvchi o`z nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o`qituvchi sinfni ikki guruhga bo`lgan holda munozarani atayin avj oldiradi. (guruhlarga bir-biriga zid nuqtai-nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo`ladi.

Qo`llanilishi.

- bahsda o`quvchilarning faol ishtiroki ta`minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o`rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.

Afzalligi:

- o`quvchilarni bahslashishga o`rgatadi;
- munozara madaniyatiga o`rgatadi;
- asoslab berish malakasini oshiradi.

Demak, yuqoridagilarni tajribada qo`llab, o`rganib, o`quvchilarning ko`nikma, malaka me`yorini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nimani o`qidim? (o`qiganda) - 10 %
2. Nimani eshitdim? (eshitganda) - 20 %
3. Nimani ko`rdim? (ko`rganda) - 30 %
4. Nimani eshitdim va ko`rdim? - 50 %
5. Muhokama, bahs-munozara - 70 %
6. Shaxsan o`zim bajardim - 80 %
7. Ustoz bilan birga bajardim - 90 %

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni qo`llab dars o`tilganda sinfda, o`zlashtirmaydigan o`quvchi qolmaydi. Deyarlibarcha o`quvchilardarsjarayonigajalbetilib, ularningdarsgaqiziqishlariortadi.

O`quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o`rganishlariga imkoniyat yaratiladi. (31)

“Zig-zag” metodi

Metodo`quvchilarbilanguruhasosidaishlash, mavzunitexkorvapuختا`zlashtirishgaxizmatqiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. O`quvchilarda jamoa (yoki guruh) bo`lib ishlash ko`nikmasi shakllanadi.
2. Mavzuni o`zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

“Zig-zag” metodini qo`llash jarayonida quyidagi harakatl;ar amalga oshiriladi:

- sinf o`quvchilari bir necha guruhga bo`linadi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 qismga ajratiladi;
- har bir guruhga mavzuning muayyan qismi beriladi va uni o`rganish vazifasi topshiriladi;
- belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar;
- vaqt tejash maqsadida guruh a`zolari orasidan lider tanlanadi va ular o`rganilgan matnga oid asosiy ma`lumotlarni guruhdoshlariga so`zlab beradilar;
- liderlarning fikri guruh a`zolari tomonidan to`ldirilishi mumkin;
- barcha guruh o`zlarig berilgan matnni puختa o`zlashtirganlaridan so`ng matnlar guruhlar aro almashtiriladi;
- bu bosqichda ham, yuqoridagi faoliyat takrorlanadi;
- shu tahlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o`quvchilar tomonidan o`zlashtiriladi.(17)

“Qarama-qarshi munosabat” metodi

Metod o`z mohiyatiga ko`ra o`zlashtiril;gan bilimlarni tahlil va sintez qilish orqali asosiy hamda ikkinchi darajalima`lumotlar sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi. Metodni qo`llashda quidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O`quvchilar faoliyatini samaradorligini ta`minlash uchun ularning e`tiborlariga quyidagi jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

1. Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanish uchun:

Mavzuning ahamiyati			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo`lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	

2. Jamoa asosida ishlash jarayoni uchun:

Mavzuning ahamiyati			
№	Jamiyatning ijtimoiy hayotidagi roli	№	Shaxs hayotidagi roli
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	

“Zakovatli zukko” metodi

Mavjud bilimlarni puxta o`zlashtirishda o`quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o`quvchilarda tezkor fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o`z xohishlariga ko`ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko`rish istagi bo`lgan o`quvchilar uchun qulay sharoitni yaratadi. Ular o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to`g`ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko`ra har bir savolga qaytarilgan to`g`ri javob uchun ballar belgilanadi.

Yakuniy ballarning o`rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o`quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o`quvchilarning tafakkur tezligi imkoniyatlari to`g`risida aniq tasavvurga ega bo`lishlarini ta`minlaydi. Metod o`quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo`llanilishi mumkin.(30)

“Zanjir” metodi

Ushbu metodning mohiyati:

- mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi;
- oddiydan murakkabgacha borgani sari savollar bir-birini to`ldiradi;
- muammoli vaziyatlar sodir bo`ladi;
- o`quvchini mustaqil fikrlashga undaydi;
- qaytar aloqa o`rnatiladi;
- ijodiy muhit shakllanadi;
- faol harakat vujudga keladi;
- hamfikrlik asosida do`stona munosabat qaror topadi.

“FSMU” metodi

“FSMU” metodi munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o`tkazishda yoki o`quv-seminarlari yakunida, yoki o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin. Bunda o`quvchilarni fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini asoslashga, o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga o`quvchilarni egallagan bilimlarini baholashga, tahlil etishga hamda tinglovchilarda bahslashish madaniyatini takomillashtirishga hissa qo`shadi.

F - fikringizni bayon eting.	S - fikringizni bayoniga sabab ko`rsating.	M - ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.	U - fikringizni umumlashtiring.

F-fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko`rsating.

M- ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

6x6x6 metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o`zida 36 nafar o`quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma`lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a`zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg`ulotda har biri 6 nafardan ishtirokchi bo`lgan 6 ta guruh o`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o`qituvchi 6 ta guruhlarining har birida avvalgi guruhdan bittadan vakil qoldirib yangi guruhlar tashkil etadi. Yangi shakllangan guruh a`zolari o`z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.(16)

6x6x6 metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarining har bir a`zosini faol bo`lishga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta`minlaydi;
- guruhning boshqa a`zolarining fikrlarini tinglay olish ko`nikmalarinin hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o`z fikrini himoya qilishga o`rgatadi.

Eng muhimi mashg`ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma`ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8nafar o`quvchidan iborat bo`lgan bir necha guruhlarda ham qo`llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o`rtasida 6x6x6 metodi qo`llanilganda vaqtni ko`paytirishga to`g`ri keladi. Chunki bundayb

mashg`ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham qo`llanilayotgan mashg`ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

6x6x6 metodidan ta`lim jarayonida foydalanish o`qituvchidan faollik, pedagogic mahorat, shuningdek, guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo`lishni talab etadi. Guruhlarning to`g`ri shakllantirilmashligi topshiriq yoki vazifalarning to`g`ri hal etilmasligiga sabab bo`lishi mumkin. 6x6x6 metodi yordamida mashg`ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo`yib chiqadi.
2. O`quvchilar o`qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo`linadilar. O`quvchilarni guruhlariga bo`lishda o`qituvchi quyidagicha yo`l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to`lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo`yib chiqadi. mashg`ulot ishtirokchilar iga kema, to`lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o`quvchi o`zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo`yilgan stuldan joy egallaydi.
3. O`quvchilar joylashib olganlaridan so`ng o`qituvchi mashg`ulot mavzusini e`lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlar beradi. Ma`lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O`qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o`rinlarda guruh a`zolariga maslahatlar beradi, yo`l-yo`riqlar ko`rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to`g`ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so`ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so`raydi.
5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o`qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo`lishiga alohida e`tibor qaratiladi. O`quvchilar o`z o`rinlarini almashtirib olganlaridan

so`ng belgilangan vaqt ichida guruh a`zolari avvalgi guruhlarga topshirilgan vazifa va yechimi xususida guruhdoshlariga so`zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.(17)

“Veyer” metodi

“Veyer” bu metod murakkab, ko`ptarmoqli, mumkin qadar muaammo xarakteridagi mavzularni o`rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. “Veyer” metodi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o`z g`oyalari va fikrlarini yozma va og`zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu metod mavzuni o`rganishning turli bosqichlarida qo`llanilishi mumkin:

- boshida o`z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o`rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

1. Aspekt(nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa va tushuncha tekshiriladi.
2. Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.
3. Fazilat - ijobiy sifat.
4. Nuqson - nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.
5. Xulosa - muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo`yicha dalildan natijaga kelish.

Ta`limdan tashqari bu metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;

- o`zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

Ta`lim samaradorligini oshirishda “Blits-o`yin”, “Chorraha”, “Muomala texnologiyasi” kabi ish yo`nalishlaridan ham foydalanish mumkin.

“Intsedent” metodi

“Intsedent” metodda mashg`ulotlarni olib boorish, o`quvchilarning ekstremal holatlarda tezkorlik bilan muammolarni yechimini topish ko`nikmasini hosil qilishga o`rgatadi.

O`tkazish qoidasi: o`quvchilarga muammo yuzasidan qisqacha axborot beriladi va o`quvchi 0.5-1 minut davomida javob berishi shart. Bu usul o`quvchilarni shoshilinch holatlarda ishlashga va fikr yuritishga o`rgatadi. Metodning ahamiyatli tomoni shundaki, uning to`liqligi emas, balki aniqligi va tezkorligi inobatga olinadi va o`quvchi 1.0 koeffitsiyent bilan baholanadi. Ushbu metod darsning hamma bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.(22)

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi


So`z yuritilayotgan metod E.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodning mohiyati quyidagicha:

Jamoa asosida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o`quvchining shaxsiy imkoniytlarini ro`yobga chiqarishga ko`maklashish;

O`quvchilarda ma`lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g`oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini , ijtimoiy-gumanitar va tabiiy yo`nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etilgan mashg`ulotlar bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:



“Skarabey” metodi

“Skarabey” metodi o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq va xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur metod mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi hamda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Mazkur metod oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatining fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lib, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. “Skarabey” metodidan alohida

ishlarda, kichik guruhlarda va mashgʻulotlar oʻtish jarayonida qoʻllanilishi mumkin. Bu jarayonda ham tarbiyachi ham tarbiyalanuvchi, oʻqituvchi va oʻquvchida muloqot va tafakkur xususiyatlari rivojlanadi.

Taʼlimdan tashqari “Skarabey” metodi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- oʻzgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- imkoniyatni koʻrsatish ehtiyoji;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- oʻz qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- “men”ligini ifodalashga imkon beradi;
- oʻz faoliyati natijalariga masʼullik va qiziqish uygʻotadi.

Psixotexnik oʻyinlar didktik oʻyinlarning oʻziga xos xususiyatiga ega boʻlgan turi hisoblanadi. Bu oʻyinlar oʻquv jarayonida kerak boʻluvchi malak, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi oʻqitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik oʻyinlar koʻproq oʻquvchilarni bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.(30)

“Bumerang” metodi

“Bumerang” metodi bir mashgʻulot davomida oʻquv materialini chuqur va yaxlit holatda oʻrganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yoʻnaltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega boʻlgan mavzularni oʻrganishga qulay boʻlib, oʻz ichiga ogʻzaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashgʻulot davomida tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, oʻqituvchi, oʻquvchining turli topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan oʻqituvchi yoki oquvchi, iqtisodchi yoki tadbirkor, rahbar yoki xodim rovida boʻlishi, kerakli ballni toʻplashiga imkoniyat yaratadi.

“Bumerang” (Bumerang- inglizcha- boomerang- bukilgan yogʻoch yoki plastmassa xalqa(oʻroqqa oʻxshash) uloqtirgan kishiga qaytib keladi.) metodi tanqidiy tanqidiy fikrlash mantiqni shakllantirish imkonini yaratadi, xotirani,

g`oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og`zaki bayon qilish ko`nikmalarinin shakllantiradi. Shu bilan birgalikda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe`llik, ko`nikuvchanlik, o`zgalar fikriga hurmat, faollik, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o`z faoliyatini samarali bo`lishiga qiziqish, o`zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so`zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Unda qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” va “yo`q” tipidagi to`g`ri, ochiq javoblarni berishni ko`zda tutadi.

Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya`ni:

- bo`ljak o`quvchilarda jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik, xushfe`llik; o`zgalar fikriga hurmat;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish; ishga ijodiy yondashish;
- o`z faoliyatini samarali bo`lishiga qiziqish;
- o`zini xolis baholash kabilar.

Ko`ndalang so`roq – bir-biriga guruhlab beruvchi qisqa savollar qatori bo`lib bu o`ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni opponenlar pozitsiysini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoiyb imkoniyatdir. Dars yakunida har bir o`quvchiga baholar qo`yilgach o`quvchilar fikrini bilish uchun quyidagi chizmadan foydalanish mumkin.(16)

“Bumerang” metodi

Bugungi mashg`ulotdan nimalarni bilib oldingiz?	Nimlar o`rgandingiz?	Nimlar sizlar uchun yangilik bo`ldi?	Yana nimlarni bilishni istardingiz?

“Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchada: pin-mustahkamlash; board- doska)


Bu o`qitish metodining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o`quv suhbatini amaliy usul bilan bog`lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalar: o`quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi.

“Rovenn diagrammasi” metodi

Ushbu metod o`quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o`zlashtirish (sintezlash) ko`nikmalarini hosil qilishga yo`n`ltiradi. Metod kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo`yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o`zaro teng to`rt bo`lakka ajratiladi va har bir bo`lakka quyidagi sxema chiziladi:

“Roven doirachalari”



Metod o`quvchilar uchun o`zlashtirilgan o`zaro yaqin nazariy bilimlar, ma`lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo`lim yoki boblar bo`yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Metodni qo`llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- sinf o`quvchilari to`rt guruhga bo`linadilar;
- yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- har bir guruhga o`zlashtirilayotgan mavzu (bo`lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- topshiriqlar bajarilgach, guruh a`zolari orasidan liderlar tanlanadi;
- liderlar guruh a`zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to`ldiradilar.

“Venn diagrammasi” metodini qo`llash jarayonida guquhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir: (17)

Guruhlar	Diagramma ning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“Insert” strategiyasi

Ushbu strategiya o`zlashtirishi ko`zda tutilgan yangi mavzu bo`yicha o`quvchilarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda mavzuga nisbatan taxlil yondashish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishni bajarish tartibi:

- kichik guruhlar tuzilib ular nomlanadi;
- har bir guruhdan o`zlashtirishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid yozma fikr bildirish so`raladi;
- o`quvchilar fikr va mulohazalarni qog`ozga yozib borishadi;
- o`qituvchi matnning mazmuni ifodalangan taqdimotni namoyish etadi;
- o`quvchilar bu matn va o`zlari bildirgan fikrni qanchalik o`xshashligi va farqini maxsus belgilar bilan qayd etadilar.
- har bir guruh a`zolari ushbu topshiriq bo`yicha ma`lumot berishadi.

Metodni qo`llashda o`quvchilar quyidagi sxemalar bo`yicha faoliyatni tashkil etadilar.

Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilar ma`nosi
Z-	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o`z aksini topgan bo`lsa
S-	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o`z aksini topmagan bo`lsa
?-	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug`ilsa

Liderlarning hisobotidan so`ng guruhlarning natijalarini o`rganish chog`ida:

Maxsus belgilarning tartib raqamlari	Guruhlarning nomlari			
	Al Farg`oniy	Beruniy	Farobiy	Ibn Sino
1.				
2.				
3.				

Metodo`quvchilardamantiqiyfikrlash, shaxsiyatolarustidaishlashko`nikmalarinishakllantirishgayordamberadi.(32)

“Aqliyhujum”-

muammolarnihalqilishdakengqo`llaniladigananchaginamashhurmetoddir, uningnominirustilida “mozgovayaataka”, ingliztilida “brainstorming” debataladi. Buusulkatamiqdordagig`oyalarniyig`ish, o`quvchishaxsiniaynibirxilfikrlashinersiyasidanholiqilish, ijodiyvazifalrniyechishjarayonidadastlabpaydobo`lganfikrlarniyengishdir. Uqatnashchilarnio`zta savurlarivaijodlaridanfoydalanishgaundaydivaberilganharqan daymuammogako`psonliyechimlartopishdayordamberadi(buvaziyatdamennimaqilishimkerak? Buto`siqniqandaybartarafqilishimizkerak?). Aqliyhujumqadriyatlaritanlashvamuqobillarinianiqlashgayordamberadi.

Metodningpsixologikmohiyatishundaki, oddiymunozaradabahslashuvchilarko`proqongli, asoslifikrlarnibayonetishgaharakatqiladilar. Bundaesabahaslashuvchilargamiyagaqandayfikrquyilibkelsa, unitanqidsizvaasoslamay, “tilganimakelsa”, lekinnavbatmanavbataytishimkoniyaatiberiladi. Bunarsako`proqmuammoanchanotanish, savolmurakkabyokinoaniqbo`lgansharoitlardaqo`lkeladi. Ya`ni, bunda

“erkinassotsiyalar” gaimkonberiladivaoxiroqibatguruhningo`zima`lumratsional “mag`izni” ajartiboladi.

Buusulni 1- martaamerikalikolimA. Osborn 30-yillardayoqtaklifetganvabuusulyordamidayirikloyihalarnirejalashtirishvaoldindanu ningnatijalarinibashoratqilishdama`lumyutuqlarniqo`lgakiritganedi.

Lekinkeyinchalikmutaxassislarunifaqatnostandart, o`zigaxosyechimibo`lganvazifalarnimuhokamaqilgandaginaqo`llashmumkin, deganfikrnibildiraboshladilar.

Biroqto`g`ritashkilettilganberynshtormingamaliyafzalliklariko`p.

Faqatbundaquyidagiqoidalargarioyaqilishkerak:

1. Jumlalar juda qisqa bo`lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
2. Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi umkin emas, ya`ni fikrlar tanqiddan holidir.
3. Mantiqiy fikrlardan ko`ra, fantastic yoki qo`qqisdan, tasodifan miyada paydo bo`lgan fikr muhimroq.
4. Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd qilinadi.
5. Bildirilgan fikr yoki g`oyalr u yoki bu ishtirokchiniki, deb ajratilmaydi, ya`ni ular – muallifsizdir.
6. Fikr yoki yaxshi g`oyalarni tanlash alohida “tanqidchilar” yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amlaga oshiriladi.

Yuqoridagi tanqidlangan guruh katta bo`lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya`ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu metodda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o`kzaligan tekshiruvlarvako`pab sinov mashg`ulotlarining ko`rsatishich, aynan shu guruhda breynshtorming usulining qo`llanishi va turli tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks holda muhim muammolar bo`yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo`ladi. Bu usul ayniqsa kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Aqliy hujumni o`tkazish qoidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. O`ylash jarayoni hech qanday baholahlarga yo`l qo`yilmaydi. Agar o`ylash jarayonida g`oyalarni baholaydigan bo`lsak, qatnashchilar e`tiborlarini o`z fikr va g`oyalarni himoya qilishga qaratib, ularning yangilari va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo`yadilar. Baholash qoidadan istisno qilishi kerak.

2. Hammani o`ta xilma-xil kutilmagan g`oyalar doirasini o`ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g`oyalar yuzga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o`z shaxsiy fikrlarini qayta ko`rib chiqishlari aniq bo`lib qoladi.

3. G`oyalar miqdori rag`batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o`sib, sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda g`oyalar paydo bo`lganda, odsatda baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o`zgalar g`oyasiga asoslanishi va ularni o`zgartirishi mumkin. Oldin taklif etilgan g`oyalarni birlashtirish yoki o`zgartirish ko`pincha sabab bo`lganlardan ko`ra yaxshiroq g`oyalarni keltirib chiqaradi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi:

- qatnashchilar bemalol o`tiraigan qilib joylashtiriladi;
- g`oyalarni yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo`yiladi;
- muammo aniqlanadi;
- ish qoidalari belgilanadi;
- g`oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;
- fikrlarga to`liq erkinlik beriladi;
- miqdorga intilish;
- o`qish, qayta o`zlashtirish va boshqalar;
- g`oyalar haqida so`rash va aytilishi bilan yozib olish;
- qog`oz varaqlari to`lganda, ularni devorga osib qo`yish;
- o`zidan qoshib g`oyalarni rag`batlantirish;
- ishni davom ettirish va oz`galar g`oyasiga aralashmaslik.

“Aqliy hujum” metodining mohiyati ham o`ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma`lum muammoning yechimini topishga qaratilganidir. Bu psixotexnik o`yin mashg`ulot jarayonida ijodiy va noandaza

fikrlashni uygʻotadi. Bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qoʻyiladi. Shaxs oʻz oldiga qoʻyilgan muammoni yechish uchun turli gʻoyalarni ilgari suradi. Yechim variantlari qancha koʻp boʻlsa, tanlash jarayoni shunchalik oson boʻladi. Har bir ilgari surilgan gʻoyani atroflicha koʻrib, kengaytiriladi va ular orasidan eng toʻgʻri gʻoya muammoing yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qatʼiy amal qilinadi. “Aqliy hujjum” metodi qiyin vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni koʻra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xiligini yoʻqotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar oʻzgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorli kayfiyatiga oʻtiladi va guruh yanada jipslashadi. Eng asosiysi shaxsda oʻz fikrini baon eta olish, kommunikativ qobiliyat va muloqot madaniyatining shakllanishiga erishiladi.(16)

“Tarmoqlar” metodi

“Tarmoqlar” (klaster) metodi oʻquvchilarni bir mavzuni chuqur oʻrganishlariga yordam beradi. Oʻquvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha vaaniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bogʻlangan holda tarmoqlashlariga oʻrgatadi. Bu usul bilan mavzuni chuqur oʻrganish avvalo oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, oʻtilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda oʻquvchilarni mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu jarayonda albatta tarbiyachi shaxsining oʻziga ham keng bilimli boʻlishi bilan birga tashkilotchilik, muloqot madaniyatining yuksak boʻlishi talab etiladi.

“Klaster” shartlari yoki qoidalari:

1. Hayolingizga kelgan fikrni yozing.
2. Imloga eʼtibor bermang (xunuk yoki chiroyli).
3. Vaqt tugamaguncha yozavering.
4. Koʻproq bogʻlanish (assotsatsiya)larni yozing.(23)

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha” metodi


O`quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko`nikmalariga ega bo`lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo`llashda quyidagi harakatar amalga oshiriladi:

- o`rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo`lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo`lgan to`rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo`lmagan bitta tushunchaning o`rin olishiga erishish;
- o`quvchilarga mavzuga taalluqli bo`lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o`quvchilarni o`z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o`quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalargahamizoh berib o`tishlari hamda ular tushunchalarga ham izoh berib o`tishlari hamda ular o`rtasidagi mantiqiy bog`liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o`rtasidagi mantiqiy bog`liqlikni ko`rsata va asoslay olish o`quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan mulohazalarinio`zaro taqqoslash ko`nikmalarini ham shakllantiradi.

Tajriba vositasida o`qitish sikli

Mazkur metod quyidagi to`rt omil asosiga quriladi:



Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan shior(g`oya)ga asoslanadi. Chunonchi:

1) o`quvchilar uchun mashq(topshiriq)lar mazmunini tanqidiy o`rganish va ular ustida fikr yuritish imkonini beruvchi sharoitni yarat(reflektiv kuzatish);

2) o`quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber;

3) muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash (konseptuallash));

4) o`quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqatda yan abir bor tekshirib chiqilishi lozim bo`lgan mashq(topshiriq)larni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);

5) yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o`tkaz va faoliyatda undan foydalan(aniq tajriba o`tkazish).(22)

“Qora quti” metodi

Ta`lim jarayonida mazkur metodni qo`llashdan maqsad – o`quvchilar tomonidan mavzuni puxta o`zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma`lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko`nikmalarini shaklantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o`quvchilar juftlikka biriktiriladilar;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so`zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va hokazo)ni kartochklarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o`qituvchi o`quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to`g`ri bajargan guruhning a`zosi o`qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf o`quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so`zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma`noni anglatishini aytadilar);

- to`g`ri javob bergan o`quvchi o`qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o`qituvchi yordamida topshiriqni bajarilishini tekshiradi.

“3/3” (“4/4, “5/5”, ...) metodi

Mazkur metod ham yuqoridaqayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o`quvchilardan o`rganilayotgan mavzu (yoki bo`lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko`ra o`qituvchi mavzu (bo`lim, bob) yuzasidan uchta (to`rtta, beshta va hokazo) tog`ri va unga teng nisbatda (uchta, to`rtta, beshta) bo`lgan va noo`rin qo`llanilgan tushunchalar (so`zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar) dan iborat tizimni shakllantiradi. O`quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo`lim, bob)ga taalluqli bo`lmagan tushunchalarni ajrartadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodning qo`llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o`qituvchi o`zaro teng nisbatda mavzu (bo`lim, bob)ga oid va oid bo`lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o`quvchilar mavzu (bo`lim, bob)ga oid va oid bo`lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo`lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o`quvchilar o`z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o`quvchilar tomonidan mavzuning puxta o`zlashtirilishini ta`minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. (25)

“Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi

O`quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo`llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg`ulotlar so`nggida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo`llaniladi:

- o`qituvchi tomonidan o`rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqqiy

ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi(har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

- har bir guruhga maxsus kartochkalarining alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchlarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

- guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo`lingach, kartochkalarining orqa tomoni o`giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to`g`ri bajarilganligi aniqlanadi.

“Videotopishmoq” metodi

So`nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar(kompyuter, radio, nusxa ko`chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta`lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`qituvchilar oldida ta`lim jarayonida turli axborot vositalaridan o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq maetodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o`quvchilar e`tiboriga o`rganilayotgan mvzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- o`quvchilar ha bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;

- o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.(30)

“Yumaloqlangan qor o`yini” metodi

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo`lgan holda o`zlashtirish imkonini beradi hamda o`quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. metodni qo`llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;

- ularning orqa tomoniga mavzuni o`zlashtirishga oid o`n besh variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;

- sinf o`quvchilari ikki yoki uch guruhga bo`linadilar(guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniladi);

- har bir guruh a`zolari bir nechta juftliklarga biriktiriladilar;

- har bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi;

- jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.

“Yumaloqlangan qor o`yini” metodidan muayyan b`olim yoki bob boyicha o`zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulay.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi

Ushbu metod o`quvchilarga muayyan mavzu bo`yicha bilimlarni darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo`llash jarayoida o`quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Gurh shaklida ishlashda mashg`ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko`rinishda tashkil etilishi mumkin:

- har bir guruh umumiy sxema asosida o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg`ulotlar yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bndlari bo`yicha umumlashtiriladi;

- guruhlar umumiy sxemaning alohida bndlari bo`yicha o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O`quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog`ozida o`z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya`ni:

- o`quvchilarning o`rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo`yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.
- o`quvchilarning mavzu bo`yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo`lgan ehtiyojlari o`rganiladi.
- o`quvchilar mavzuga oid ma`lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

Bosqichlar bo`yicha amalga oshirilgan harakatlarning to`liq tafsiloti quyidagicha:

- o sinf o`quvchilari guruhlariga biriktiriladilar;
- o o`quvchilarning yangi mavzu bo`yicha tushunchalarga egalik darajasi o`rganiladi;
- o o`quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- o o`quvchilarning yangi mavzu bo`yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo`lgan ehtiyojlari o`rganiladi;
- o o`quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo`yiladi;
- o o`qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma`lumotlar bilan o`quvchilarni xabardor qiladi;
- o o`quvchilar o`zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- o bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo`yiladi;
- o mashg`ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.(16)

II bob. BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QITISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1. Tabiiy-matematik fanlarni o`qitishda interfaol usullarni qo`llash

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy ta`lim tizimi yangilanib, yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Tez sur`atlar bilan o`zgarib rivojlanib borayotgan hozirgi zamon va yangi talablar asosida faoliyat yuritishni davrning o`zi taqozo etmoqda. Shaxsni hozirgi davr talabi darajasida tarbiyalash, g`oyaviy, ma`naviy-axloqiy bilimni oshirish, o`z navbatida mustqailigimizni mustahkamlash, yod g`oya va unsurlardan himoya qilish uchun har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi va fan o`qituvchilari, mohir va ijodkor bo`lishi, o`z kasbiga vijdonan yondashishi lozim.

Buning uchun o`qituvchi har bir darsga puxta tayyorlanishi, dars o`tish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan to`g`ri va o`rinli foydalana olishi kerak.(13,14)

Ma`lumki, o`yin faoliyati o`quvchilarning darsga qiziqishini va faolligini oshiradi. Bolaning fikrlashi, diqqatini, tasavvurini va xotirasini rivojlantiradi va bu boshlang`ich sinfdan boshlaboq o`quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangiliklar yaratishga, ya`ni ijodkorlikka o`rgatadi.

Boshlang`ich sinf o`qituvchisining faoliyati bir vaqtning o`zida bir necha fanlarni o`tishdan iborat. Bu faoliyat boshlang`ich sinf o`qituvchisidan izlanish, harakat va mahoratni talab etadi.

Boshlang`ich sinfda o`qitilayotgan har bir o`quv fani hayot bilan bog`liq, hayotiy muammolarni yechishga o`rgatadi. Masalan, ona tili va o`qish fnlari badiiy ijodga intilishni tarbiyalasa, matematika o`quvchilarda muhandislik sifatlarini rivojlantiradi, tabiatshunoslik fanlari tabiatdagi voqea-hodisalarni tushguni osh va unga munosabatni o`rgatadi, odobnoma fani o`quvchiga axloqiy tarbiya tamoyillarini, tasviriy san`at darslari esa ko`ngillarni go`zallikka oshno etadi.

Ma`lumki, bola tabiatan faol va faollikka intilgan bo`ladi. Ana shu faollikni so`ndirmaslik, eng tizimli ravsihda muayyan maqsad sari yo`naltirishda interfaol o`yinlardan tizimli foydalanish boshlang`ich tal`im pedagogikasining eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.(25,29)

Bu jarayonni amalga oshirishda zamonaviy tpedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va o`quv jarayonida qo`llash bilan mustahkamlashni taqozo etadi.

Darsda interfaol usullarni qo`llashda boshlang`ich sinf o`qituvchisi darsning texnologik xaritasini to`g`ri tuza olishi kerak. Interfaol usullardan “ Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys stadi”, “Sinkveyn”, “Muammoli ta`lim” usullarini didaktik o`yinlar jarayoniga tadbiq etish mumkin. Didaktik materiallar bilan ishlash juda qiziqarli kechadi. Bunda o`quvchilar bilan mavzu yanada ravon o`tishi bilan ularning dunyoqarashi ham osib boradi. Ayniqsa, “Kim parashyutdan sakraydi”, “Olam terish”, “Kuz hirmoni” kabi interfaol o`yinlar o`quvchilarni faollikka undaydi.(25)

Quyida atrofimizdagi olam fanidan interfaol usullarni qo`llab tashkil etgan darsimizni ishlanmasini keltiramiz:

Mavzu: Kompyuter.

Tayanch so`zlar: axborot, mashina, musiqa, kitob, o`yin, kompyuter.

Maqsad:

1. O`quvchilarni ravon o`qish ko`nikmalarini shakllantirish.
2. Kompyuterdan to`g`ri foydalanish va ularga tog`ri munosabat ruhida tarbiyalash.
3. Yangi axborot texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Dars turi: Aralash, noan'anaviy

Dars jihozi: rasmlar, slaydlar, tarqatmalar, test.

Dars metodi: savol-javob, klaster, kichik guruhlarda ishlash.

Integratsiya: ona tili, matematika, informatika, kundalik hayot.


Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.

3. Kichik guruhlarga birlashish va nomlash.



Kitob guruhi: Ilm olishda kitobdan a'losi yo`q.

Kompyuter guruhi: Bilim cho`qqisiga kompyuter aasosida ilm olib yetamiz.

Soat guruhi: Vaqtdan unumli foydalanib, har bir soniyadan samarali foydalanib, bilim olamiz.

III. Yangi mavzu bayoni.

- Aziz bolajonlar, alifbomizni qay darajada bilishimizni sinash uchun sizga shunday savol berilmoqda. Alifbodagi harflar ketma-ketligi sonlarini berilgan jumboqda to`g`ri ko`rsatsangiz, sizga ajoyib yangilikdan xabardor bo`lish imkoniyatini beradi.

10, 14, 12, 15, 23, 20, 4, 17

Kompyuter so`zi .

Demak bugungi mavzumiz nomi: Kompyuter.


Mavzu ifodali qilib o`qituvchi tomonidan o`qib beriladi. O`quvchilardan kuzatib borish va tushunmagan so`zlari tagiga qalamda belgi qo`yish so`raladi.


Dam olish daqiqasi

O`qituvchi ko`rsatgan rasmlar asosida o`quvchilar ularga mos harakat qiladilar:



Guruhchalarga “Kompyuter” so`zini tarmoqlash vazifasi beriladi.





Qissadan hissa:

Ilm olsang dunyoda,
Aqling bo`lar ziyoda.

Guruhlar taqdimoti tinglanib umumiy xulosalar chiqariladi.

III. Mustahkamlash.

Testlar:

1). Kompyuter axborotlarni qayerda saqlaydi?


1. Xotirasida
2. Printerda
3. Sandig`ida.

2) Kompyuterda nimalar qilish mumkin?

1. Uchish, suzish.
2. Musiqa, kino, o`yin, yozish, chizish, hisoblash
3. uxlash, ovqatlanish, kiyinish.

IV. Dars yakuni

O`quvchilarga “Qalamlar” tarqatiladi. Darsdan olgan bilimlarini natijalarini yozishlari va “qalamdonga” solishlari asosida monitoring chiqariladi.



V.Uy vazifasi berish.

1. “Kompyuter” mavzusini o`qish , qayta hikoya qilish.
2. Mavzuga oid qo`shimcha ma`lumotlar bilib kelish. (21)

Mavzu: Chumchuq bilan chittak.

Darsning bosqichlari	Vaqt
Tashkiliy qism	2-minut
Kichik guruhlariga birlashish	3-minut
Uyvazifasiniso`rash: topshiriqvarasmlarasosida.	5-minut
Yangimavzu “Aqliyhujum” metodiasosida.	5-minut
Mavzu matnini magnitafondan eshittirish	5-minut
Dam olish daqiqasi.	2-minut
Mustahkamlash.	4-minut
Ta`limiy o`yin	3-minut
Topishmoqlar	2-minut
Monitoring	4-minut
Baholash va rag`batlantirish	3-minut
Uy vazifasi	2-minut

DTS talabi:

Bilim: qush va hasharotlarning bir-biridan farqini bilish.

Ko'nikma: Qushlardan 5-6 tasining nomini ayta olish;

Malaka: Qushlarning ouqlanishga ko'maklashish malakasiga ega bo'lish.

Tayanch so'zlar: Chittak , chumchuq, xavfli qurol, zambarak, miltiq, cho`zma.

Maqsad:

- 1) Qushlar haqidagi bilimlarini kengaytirish.
- 2) Qushlarga nisbatan mehr-muhabbat ruhida tarbiyalsh.
- 3) Qushlar olamini muhofaza qilishga yo'llash.

Dars turi: Aralash, noan'anaviy

Dars jihozi: rasmlar slaydlar, kuzatish kalendari, alfavit, magnitafon.

Dars metodi: savol-javob, aqliy hujum.

Integratsiya: ona tili, matematika, kundalik hayot.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism.

- 1) Kuzatish kundaligi asosida axborot:
 - Hozir faslimiz bahor.
 - Havo holati ochiq.
 - Xona temperaturasi:+26, tashqarida esa +30 gradus.



- 2) Kichik guruhlarga birlashish.

O`quvchilarga paranda va qushlar rasmlari tarqatiladi. Tarqatmalarga ko`ra ularning ovozini taqlid orqali guruhchalarga birlashtirilib nomlanadi. Jo`ja : chip-chip, kakku :ku-ku, g`oz g`o-g`o kabi.




II. Uy vazifasini so`rab, baholash.

“Biz va tabiat” mavzusi yuzasidan “Ish daftarlari tekshirildi. Chizilgan rasmlar tahlil qilinadi.



III. Yangi mavzu bayoni.

Rebus:



Mavzu: Chumchuq bilan chittak.

1. “Aqliy hujum” metodi asosida qushlar nomlarini ayting. O`quvchilar aylana shaklida turadilar. Boshlovchi yumshoq o`yinchoq orqali savol berib, javoblari o`qituvchi xattaxtaga yozib boradi. Yozilganlar asosida muhokama olib boriladi.

Chumchuq, hakka, tovus, qarg`a.....


2. Dars mavzusi magnitafondan eshittiriladi.

3. Mavzuning tarbiyaviy ahamiyati ko`rsatilib o`tiladi.

Dam olish daqiqasi :Har bir o`quvchi bir hayvon yoki qushning qilg`ini qiladi, qolganlar qaytaradi.


Masalan :Ayiq lapanglab yuradi, quyon sakraydi, xo`roz qanotlarini qoqadi...kabi..

4. Alfavitdagi sonlar tartibini to`g`ri topsangiz , qaysi qush nomi berilganligini bilib olasiz.



10,1,15,19,1,17-KAPTAR

5. Topishmoqlar:




Boshi taroq, dumi o`roq.



Qaysi qush o`z nomini aytib sayraydi.

III.Dars yakuni.

1. ”Qushlar –bizning do`stimiz” o`yini asosida dars monitoringi: Bolalarga turli qushlar rasmlari berilib, ulardan bugungi darsdan nimalar oldingiz savoliga javob yozishlari so`raladi. Javoblar o`qilgach belgilangan “qushlar ini’ga “qushlar’ joylashtirib , dars monitoringi chiqariladi.O`qituvchi tomonidan xulosalanadi.



2. O`quvchilarni baholash va rag`batlantirish.

3.Uy vazifasi berish. “Chumchuq va chittak ” mavzusini o`qish va chumchuq va chittak rasmini chizish, ular haqida ma’lumotlar bilib kelish.(21)

Quyida biz matematika darsini interfaol usullar asosida tashkil etish bo`yicha ishlab chiqqan dars ishlanmamini keltirib o`tamiz.

Mavzu: 100 sonini hosil qilish.

Ta’limiy maqsad: O`quvchilarni 100 sonini hosil qilishga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarda do`stlik, bir-biriga hurmat hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: 100 sonini hosil qilish ko`nikmalarini shakllantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster

DTS talabi:

Tasavvur: 100 soni 10 ta 1onlikdan tarkib toplanligini tasavvur etish.

Bilim: 100 soni haqida tushunchaga ega bo`lishi.

Ko`nikma: 100 sonini hosil qilish ko`nikmasiga ega bo`lish.

Malaka: 100gacha sanash malakasiga ega bo`lish.


Dars jihozi: Magnit doskadan foydalanish. Rangli rasmlar, rangli masalalar.

100 soni, darslik tarqatma materiallar, kompyuter slaydlari, abak.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism .

1. Navbatchining axborot tinglanadi.
2. O`quvchilar guruhlariga birlashtirish o`yinchoqlar asosida:



“Aqliy hujum” metodi bo`yicha:

O`quvchilar doira shaklida turadilar. 1-o`quvchi o`rtada turib, 10-100 gacha bo`lgan sonlarni birini aytib ko`ptokni bir o`quvchiga otadi, ko`ptok olgan o`quvchi undan oldingi sonni aytishi lozim bo`ladi, bir ozdan keyin aytilgan sondan keyingisini aytish so`raladi. Belgilangan vaqt o`tgach (2-3min) berilgan javoblar tahlil etilib xulosa qilinadi

II. Yangi mavzu: 100 sonini hosil qilish.

Bolalar bugungi darsimizni sayohat bilan boshlaymiz.

1-sayohatimiz gugurt ishlab chiqadigan fabrikaga bo`ladi. Tasavvur qiling siz fabrika ishchisiz, har bir guruh bir sex deb olamiz.

1-topshiriq : gurgut cho`plaridan 10tadan bog`lab 10ta bog`lam yarating.

Guruhlar taqdimotidan so`ng tez va soz bajargan guruh ishtirokchilari rag`batlantiriladi.

2-topshiriq: nazoratchilar bog`lamdagi gurgur cho`plarini to`g`ri sanalganini tekshirgan holda har bir guruhga turli sondagi cho`p bog`lamlarini ko`rsatadilar, guruhlar esa topishlari lozim.

2 bog`lam = 20, 3 bog`lam = 30 , 5 bog`lam = 5010 bog`lam =100.
kabi .

Sayohatimiz “Sonlar saltanati”ga unga kirish uchun abakdan sonlar hosil qilishimiz kerak. (har bir guruhga berilgan sonlar bo`yicha abakda sonlar hosil qiladilar, qolgan guruhlar uni o`qishlari lozim.

O`nliklar	Birliklar	
1	0	O`n
2	0	Yigirma
3	0	O`ttiz
4	0	Qirq
5	0	Ellik
6	0	Oltmish
7	0	Yetmish
8	0	Sakson
9	0	To`qson

$$10+10$$

$$1 \text{ o`nlik} + 1 \text{ o`nlik} = 2 \text{ o`nlik}$$

$$10+10=20$$

Guruhlarda misollar yechish:

1-guruh:

$$10+10=$$

$$90-10=$$

$$50+10=$$

$$70-10=$$

2-guruh:

$$20+10=$$

$$60-10=$$

$$80+10=$$

$$40-10=$$

3-guruh:

$$30+10=$$

4-guruh:

$$40+10=$$

$80-10=$

$50-10=$

$60+10=$

$70+10=$

$20-10=$

$30-10=$

Keyingi sayohatimiz “Yozuvlar shaharcha”siga:

Daftaringizni oching chiroyli yozuv:

100 100 100.....

1-misol.

$20+20$

2 o`nlik + 2 o`nlik = 4 o`nlik

$20 + 20 = 40$

$50-10$

5 o`nlik - 1 o`nlik = 4 o`nlik

$50-10=40$

Qolgan misollarni guruhda bajaring va yozing:

$20+10=$

$40-20$

$70+10$

$60-10$

Dam olamiz quvnaymiz:

“Sonlar sari odimlar” she’ri asosida harakatlar bajaramiz.

O`ndan oshgan yigirma.

So`ng o`ttizga o`tadi.

Ikki karra ko`paysa,

Qirqqa qadar etadi.

Uzatganda yetar qo`l

Undan keyin ellikka,

So`ng oltmishning mulkiga

Boshlab borar yo`l tikka.

Keyin esa sanoqda

Kelar yetmish degan son

Marraning yaqinida

Ko`rinmoqda huv sakson.

Shu sonlar oralab

To`qsonga ham kelimiz

Gar qarshilik bo`lmasa

Sal tanaffus qilamiz

Mana nihoyat keldik yuzma-yuz

Ko`pdan kutganimiz-100 bilan

Qachon bir marraga yetsak biz

Deymiz:-reja bo`ldi 100.


2-misol matematik diktant asosida olinadi:

9 ta o`nlikdan iborat sonni yozing, 4 ta o`nlikdan iborat sonni yozing.....

III.Mustahkamlash.

100 sonini klaster metodi asosida tarmoqlang.

100 sonini tarmoqlang



IV.Dars yakuni

Darsni yakunlash va o`quvchilarni rag`batlantirish.(27)

2.2. Gumanitar fanlarni o`qitishda interfaol usullarning afzalligi

Boshlang`ich ta`lim oldiga qo`yilgan talablar o`ish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differenziatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo`naltirish, izlanish, muammoli o`qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlangich sinflarda ertaklarni o`qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o`quvchining faolligini oshiradigan turli interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.(28,31)

Quyida boshlang`ich sinfdagi ertakni o`rgatishning aniq modular asosida tayyorlangan dars ishlanmasini keltiramiz.

O`qish darsi.

Mavzu: O`zbek xalq ertagi “Rostgo`y bola”

Maqsad:

To`g`ri, tez va ifodali o`qish malakalarini takomillashtirish;

Matn ustida ishlash, taxlil qilish ko`nikmasini mustahkamlash, o`quvchilarning lug`at boyligini oshirish;

O`quvchilar shaxsida tog`riso`zlik, rostg`oylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori:

Biz nimaiki qilmaylik,

Barchasi zarur, barchasi kerak.

Bilim egallash uchun,

Tinimsiz o`qish kerak.

1-modul: Uyga vazifani tekshirish.

“Maymun va duradgor” haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o`quvchi chaqiraladi va ular galma-galdan ertakni o`qib, mazmunini so`zlaydilar. Duradgor kim? U nim aish qiladi? degan savol beriladi va o`quvchilarning javoblari to`ldiriladi.

2-modul: Quvnoq daqiqa.

O`qituvchi: Yaxshi o`qish uchun yaxshi nafas olish kerak.

1. Nafas olishga oid mashqlar: “Choyni sovit”.

- “Gulni hidla”
- “Sharni shishir”
- “Changni hayda”

2. Ovoz mashqi: tovush mashqi: a, o, u, e, i, o`

- Quyidagi she`rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e`tibor qiling:

To`g`riso`z bola. H.H.Niyoziy

Kelmog`ida maktabidan bir o`g`il,

To`xta debon ikki kishi to`sdi yo`l.

Dedi: “ tanga berurman sanga

So`zla bir og`iz yolg`on manga.”

Berdi o`g`il fikr ila shirin javob:

“ So`zlang ako qomatingizga qarab,

Bu so`zingiz aslida yolg`on erur

Tangaga yolg`onni kim olgan erur”.

Quyidagi skanerga qarab bugungi o`rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so`zlarni toping.

- Rostgo`y (5 ta), bola (3 ta), yolg`on, tanga, kishi, ako, maktab, so`zingiz, og`izgina, sanga, kim.

3-modul:

Skandardagi soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Biro gʻizgin a yolgʻon, rostgoʻy bola, yolgʻonchi kishi sanga tanga berurman, dedi va boshqalar.

- Kim shu soʻzlar yordamida ertak tuzib beradi. Bolalar oʻzlaricha tuzgan ertaklarini soʻzlab beradilar.

- Bugungi oʻtadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (yoki oʻqituvchi ertak nomini oʻzi aytadi: “Rostgoʻy bola”).

- Kelinglar endi ertakni eshitib koʻramiz. Unda baʼzi notanish soʻzlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qoʻyilgan boʻlishi ham mumkin.)

- Podshoh – yurtni boshqaruvchi kishi, vazir – podshohning yordamchisi, tadbir – oʻylab qilingan ish, xomush – xafa.

4-modul:

Ertakni oʻqituvchi tomonidan oʻqish, maʼlum bir qismini oʻquvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolgʻon gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz?(oʻquvchilar javoblari eshitaladi.)

- Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi?(oʻqituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida oʻquvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi. Masalan, “boshingga qilich kelsa ham rost gapir” ...qolganlarini oʻquvchilar oʻzlari davom ettiradilar.)

5-modul:

Mustaqil oʻqish.

Usul: oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birga ovoz chiqarib oʻqiy boshlaydi.(oʻquvchilar faqat koʻz bilan oʻqiydilar) oqituvchi jim boʻlib, oʻqishni ichida davom ettiradi., oʻquvchilar esa ovoz chiqarib oʻqiydilar, keyin yana oʻqituvchi ovoz chiqarib oʻqiydi, oʻquvchilar esa koʻz bilan oʻqiydilar va shunday oʻqish ertak oxirigacha davom etadi.

Oʻqish oldidan topshiriq: xattaxtada yozilgan soʻzlarni ertakda berilganday izchillikda, soʻzlar qoʻshib yozing:

*qadimda, * podshoh bo`lgan, * xomush bo`lib yurgan, * vazirning maslahati,* gul urug`i, * farzand qilib olmoqchi, * vaqt o`tibdi, * shahar aylanibdi, * gullarni ko`rib o`taveribdi, * ko`zi tushibdi, * gullar qani, * qaynattirgan.

6-modul:

Matnni tahlil qilish uchun savollar:

- Ertak qahramonlari kimlar;
- Quyidagi so`zlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yo`q, gul urug`i tarqattiribdi (podshoh).
- Yaxshi farzand topish yo`lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)
- Qanady yo`l bilan rostgo`y, aqlli bola tanlandi?
- Keyin nima bo`ldi?
- Podshoh gul urug`ini nima qilgan ekan?
- Quyidagi hikmatli so`zlardan qaysi biri ertak mazmunini to`ldiradi?
 1. Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.
 2. Yolg`onning umri qisqa.
 3. Boshingga nima kelsa, tilingdan kelur.
 4. To`g`rilik baxt keltirar.

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o`quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar kabi guruhlarga bo`linib markazlarda ishlaydilar.

O`qish markazi: 1-guruh – o`quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko`rsatilgan qismni o`qib, uni tiklash (ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo`linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog`ozlarga yopishtiriladi. O`quvchilar bo`lingan matnni tiklab, to`liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2-guruh – tahlilchilar. Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo`yish).Yozuv markazi: “ijodiy ish”.

Har bir o`quvchining daftari qahramonlar hislatlariga tegishli so`zlar yozilgan: farzandi yo`q, xomush, ko`p bolalarni ko`rdi, ulsiz tuvak ushlab turgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o`qib, kimga tegishligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo`qligini aniqlang.(vazirga tegishli gap yo`q). O`zingiz tanlang.

Ilmiy tadqiqot markazi.

Topshiriq: ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo`ladi:

Xomush podshoh. Aqli vazir.

Rostgo`y bola. Yolg`onchi bolalar.

Taqdimot:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o`z ishlarining yakuni haqida so`zlaydilar.

O`qituvchi: Qarang xattaxtamizda, quvonchimiz cheksizdir,

Hosil bo`ldi kamalak, yorqin bizning kelajak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi.(bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g`oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm ishlash va hokazo).

Darsni xulosalash.

“Bu darsdan qanday yangilik o`rgandingiz? Sizga nima yoqdi? Nima sizga yoqmadi? Siz qanday bo`lishni xohlar edingiz?(28,19)

Mavzu: Hakka va uning bolalari.

DTS talabi:

Bilim: Ertak haqida ma'lumotga ega bo`lish.

Ko`nikma: matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish;

Malaka: sidirg'a (tekis) ravon o'qish.

Maqsad:

1. O`quvchilarni ravon o`qish ko`nikmalarini shakllantirish.
2. Oquvchilarni do`stlik, o`zgalarni hurmat qilib, vaqtdan unumli foydalanish ruhida tarbiyalash.

3. O`quvchilarni qissadan hissa chiqarishga yo`llash.

Dars turi: Aralash, noan'anaviy

Dars jihozi: rasmlar, slaydlar, tarqatmalar, test.


Dars metodi: savol-javob, klaster, rolli o`yin, kichik guruhlarda ishlash.

Integratsiya: ona tili, odobnoma, kundalik hayot, matematika.

Darsning borishi


I. Tashkiliy qism.

Muzyorar metodi asosida tanishuv mashqi "Mening ismim... va men bilgan qushlardan biri...." asosida tanishuv mashqini o`tkazish. Masalan: "Mening ismim Doston men bilgan qush to`ti" kabi.



Kichik guruhlarga birlashish.

Qushlar asosida kichik guruhlarga birlashish.




II. Uy vazifasini so`rab, baholash.

"Maqtanchoq g`oz" mavzusi yuzasidan o`quvchilardan rolli o`yin bajarishlari so`ralib, baholanadi. Qayta hikoya qilish, o`qish tezligi tekshiriladi. Chizilgan rasmlar tahlil qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu:Hakka va uning bolalari.



Mavzu o`qib beriladi. O`quvchilardan tushunmagan so`zlarni topish so`raldi.

Lug`at ishi.

Duch keldi- uchrashib qoldi.

Nishon- mo`ljil

E`tiroz- norozilik

Dam olish daqiqasi

“Ola qanot hakkalar” qo`shig`i asosida harakatlar qilib dam oldilar.


Ola qanot hakkalar

Shoxdan-shoxga qo`nasiz

Chug`urchuqlab nimanidir

Izlab topgan bo`lasiz.

Guruhchalarga “Hakka” so`zini tarmoqlash vazifasi beriladi.



Guruhlar taqdimoti tinglanib umumiy xulosalar chiqariladi.

Qissadan hissa chiqariladi:

Botir botmas botqoqqa

III. Mustahkamlash.

“Kim tez o`qiydi?” musobaqasi bo`yicha o`quvchilardan tanlab o`qitiladi.

Savolarga guruhlarning javoblari:

1-guruhga: Ona hakka bolalariga nima debdi?

2-guruhga: Bolalari nega ona hakkaning aytganini qilishni xohlamabdilar?

3-guruhga: Ona hakka nima uchun bolalarini dalada qoldirib ketibdi?

IV. Dars yakuni

Uy vazifasi berish.

1. “Hakka va uning bolalari mavzusini o`qish , qayta hikoya qilish.

2. Mavzuga oid rasm chizish, maqollar va she`r yod olish.(19)

Ona tili darsi

Mavzu: Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi.

Ta`limiy maqsad: Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi haqida tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarni ota-ona va qarindoshlarga nisbatan mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozish ko`nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: interfaol.

Dars metodlari: muzyorar, rolli o`yin, aqliy hujum, klaster.

Darsning jihozi: Kompyuter slaydalri, kishilar ismi, familiyasi yozilgan plakatlar, ko`rgazmali rasmlari, tarqatma materiallar.


DTS talabi: Kishilarni ismi va familiyasini bosh harf bilan yozish.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism.

Kichik guruhlarga birlashish.

O`quvchilarga turli cholg`u asboblari nomi yozilgan tarqatmalar tarqatiladi: rubob, doira, karnay, g`ijjak. O`quvchlar pantomimo asosida cholg`ularni “chalib” guruhchalarga birlashadilar va doirachilar, karnaychilar, rubobchilar, g`ijjakchilar guruhlari hosil qilinadi.



Muzyorar metodi asosida “Mening ismim... va familiyam.....” shaklida tanishuv mashqi o`tkazish.

Masalan:Mening ismim Go`zal, familiyam Obidova kabi.

II.Uy vazifasini so`rab, baholash.

Uy vazifasini tekshirish, daftarlarni almashtirish.

Kim? Nima? Kimlar?, Nimalar? so`rog`iga javob bo`lgan so`zlarga qaysi guruh ko`p so`z topadi musobaqasi o`tkazish.

Masalan, qalam- qalamlar, bola-bolalar kabi.

”Aqliy hujum” metodi asosida so`zlar topish.Guruhlar doira shaklini hosil qiladilar. Bir o`quvchi boshlovchi vazifasida yumshoq koptok bilan tengdoshlariga kim? so`rog`iga javob bo`ladigan oila a`zolari, qarindoshlar,ustozlari, o`rtoqlarini qanday atashlarini so`raydi va kim koptok olsa misol aytib, boshlovchiga qaytaradi.

O`qituvchi misollarni yozib, qaytarilgan yoki notog`ri aytilgan misollarni tahrir etadi:

Masalan:O`qituvchi,ona, Usmonov, Nodira Abbosovna, Lola, bobo,Dilshod... kabi.....

III.Yangi mavzu bayoni

Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi.


98-mashq

1-g: oila a'zolari: bobo, buvi..

2-g:Oila a'zolari ismini: Hasan,Husan..

3-g: oila a'zolari familiyasini: Yo`ldoshev,Karimova... asosida tushuntiriladi.

Qoida ustida ishlash.



99- mashq.Rolli o`yin asosida ko`rsatib bering.



Nilufar, Xurshida va Xolida Abdullayevalar. Saodat Hamidova.

6.Klaster metodi asosida

1-guruh: oila a'zolari

2-guruh: maktab jamoasi


3-guruh: mashhur insonlar

4-guruh: ajdodlarimizni topish vazifasi beriladi.

Oila a'zolari

• Dadam-Mahmud Xolmatov

Opam-Shohida
Maqsud



Ukam-


Buvim-Muazzam Tursunova



Maktab jamoasi

Direktor-Lola Yo`lchiyeva

Sinf-dosh-G`ani




Sinf-dosh-Guli


Ustoz-Zebo Haydarovna



Mashhur insonlar



Ajdodlarimiz



IV.Dars yakuni.

1.Monitoring.

O`quvchilarga turli ramziy rasmlar ota, ona, o`g`il, qiz, aka, opa, uka, singil beriladi. Bu asosda olgan bilimlaringizni bir oila singari aytib, yig`ishg vazifasi beriladi. Umumiy olganda nima hosil bo`ldi savoli berilib, oila hosil bo`lganligi ta`kidlanadi.



Demak oila faravonligi uchun barcha oila a'zolari bardamlikda harakat qilishlari lozimligi uqtirilib, dars monitoringgi chiqariladi.

2.Uyga vazifa:

100-mashq.



3.O`quvchilarni baholash va darsni yakunlash. (20)

Tajriba sinov ishlari va natijalari

Biz malakaviy ishimizni yozish jarayonida boshlang`ich sinf o`quv fanlari darslarida interfaolusullardan foydalanishga doir usullar haqida batafsil to`xtaldik. Qanday usul va tajribalardan foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin degan masala ustida ilmiy izlanishlar olib bordik. Ishlab chiqqan, shuningdek, yuqorida ko`rib chiqqan usullarimizni Guliston shahridagi 6- umumta`lim maktabining 1-D – sinfida tajribadan o`tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur umumta`lim maktabning 1-A – sinfini tanladik. Ma`lum bir muddat o`tgach, har ikkala sinf o`quvchilari bilim saviyasini solishtirib ko`rdik. Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni, xulosalarimizni, 1-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan

foydalanishning afzal tomonlari, ahamiyati va tajriba davomida erishgan yutuqlarimizni to'la yoritishga harakat qildik.

Biz tajriba-sinov jaroyonining boshida, o'rtasida va oxirida boshlang'ich sinf o'quvchilarining 1-sinf ona tili darslarida nutq o'stirish usullaridan so'ng bilim va ko'nikmalarining shakllanishi hamda o'sib borishini og'zaki savol-javob, test va yozma ishlar tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o'tkazib bordik.

Tajriba-sinov o'tkazishdan oldingi har ikkala sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari tajriba-sinov o'rtasiga borib tajriba-sinov o'tkazayotgan 1^D-sinf o'quvchilarida o'sib borayotganini, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, rivojlanib borayotgan qobiliyatlarini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rib, bu borada olib borayotgan ishlarimizni sidqidildan davom ettira boshladik. Tajriba-sinov yakuniga borib, nazoratga olgan 1^A-sinf o'quvchilariga qaraganda tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan 1^D-sinf o'quvchilarida ijobiy o'zgarishlar ro'y berganining guvohi bo'ldik.

Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

- 1.Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
- 2.Lug'at boyliklari oshirildi;
- 3.So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 4.Ona tili grammatikasiga oid bilim va ko'nikmalari shakllantirildi;
- 5.Ona tili fanini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 6.O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
- 7.Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
8. Dunyoqarashlari kengaytirildi;
- 9.O'z ona tilisiga bo'lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
- 10.Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
- 11.Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
- 12.O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Tajriba – sinov sinfi hamda nazorat sinflari o`quvchilarining faoliyatlarini bir –biriga taqqoslab, tajriba-sinov natijasida erishilgan yutuqlarni quyidagicha shkala va diagrammalarda e`tiboringizga havola qilamiz:

1. O`quvchilar davomati

Tajriba davri Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan so`ng
1D - sinf	91%	94%
1A - sinf	90%	91%

Ko`rinib turibdiki, tajriba o`tkazayotgan sinfimizda tajriba o`tkazishdan oldin o`quvchilar davomati 91% ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng davomat 94% ga ko`tarilgan. Nazorat sinfida esa o`quvchilar davomati 1%ga o`zgargan.

2. O`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`ldi:


Tajribadan oldin:

O`zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	qoni			
		a`lo	yaxshi	o`rta	qarsiz
1D –sinf	32	6	14	10	2
1A –sinf	30	5	13	10	2

TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

1“D”-sinf tajriba sinf

1^A”-sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 6 ta - 17 %	5 baho – 5 ta - 17 %
4 baho – 14 ta – 39 %	4 baho – 13 ta - 43 %
3 baho – 10 ta - 28 %	3 baho – 10 ta - 33 %
2 baho – 2 ta - 6 %	2 baho – 2 ta - 7 %


Tajribadan so`ng:

O`zlashtiri sh ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxsh i	o`rt a	qoniq arsiz
1D –sinf	32	10	13	8	1
1 ^A –sinf	30	8	12	8	2

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

1^{”D”}-sinf tajriba sinf

1^{”A”}-sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 10ta - 30 %	5 baho – 8 ta - 24 %
4 baho – 13 ta - 43 %	4 baho – 12 ta - 36 %
3 baho – 8 ta - 24 %	3 baho – 8 ta - 24 %
2 baho – 1 ta - 3 %	2 baho – 2 ta - 6 %

Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, o`yin tarzida tashkil etish orqali o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari yuqoridagi shkalada ko`rsatilgan natijalarni qayd etdi.

Tajriba sinfida yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar tajribadan oldin 2 nafarni tashkil etgan bo`lsa, tajribadan so`ng ushbu sinfda yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilarning 1 nafari o`rta bahoga 1 nafari yomon bahoga o`zlashtira boshladilar. Nazorat sinfida esa yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar 2 nafarligicha qoldi. Avval ular 2 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yana 2 nafarni tashkil qildi.

O`rta bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 1^D-sinfda 10 nafar edi. Tajribadan so`ng 2 nafarga kamayib, 8 nafarni tashkil qildi. Ushbu sinfda o`rta va qoniqarsiz bahoga o`qiydigan o`quvchilar 12 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 9 nafarni tashkil qildi. Bu 25% o`quvchilar yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini bildiradi. 1^A -sinfda esa tajribadan oldin 10 nafar o`quvchi o`rta bahoga o`qishgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 8 nafarni tashkil qildi.

Yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar avval 1^D -sinfda 14 nafarni tashkil qilgan edi. Tajribadan so`ng ular 13 nafarni tashkil qildilar. Ushbu sinfda 6 nafar o`quvchi o`rta bahodan yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini etiborga olsak, jami 10 nafar o`quvchi a`lo bahoga o`qiy boshlagan bo`ladilar. O`z-o`zidan ushbu sinfda a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 6 nafardan 10 nafarga oshadi. Nazorat sinfida esa tajribadan oldin yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 13 tani tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yaxshi bahoga 12 nafar, a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 8 nafarga oshadi.

XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning barcha o'quv fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'stirish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o'z ona tilisini o'rganayotgan, harflarni bir-biriga qo'shib, so'zlarni esa bir-biriga qo'shib gap yasashga o'rganayotgan, matnni ifodali o'qish qoidalari bilan tanishayotgan, matematik ifodalar bilan tanishib, qo'shish va ayirish amallarini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya berish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bilan birga ularning ularni o'rab turgan borliq yuzasidan tushunchalarini o'stirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi.

1. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, har tamonlama yetuk, intellektual salohiyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazishda o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning samarali usul, vosita va shakllaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolardan biridir.

2. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish asosida ta'lim jarayonini tashkilotish natijasida kafolatlangan maqsadga erishiladi; o'quvchilarning talabi, ehtiyoji, uning imkoniyatlarida rajasida qondiriladi; o'quv faoliyatifaollashadi; bilimlarni mustaqil egallash malakasishakllanadi; erkin, mustaqil fikrlashga o'rganadi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiq.

4. Ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol usullari, mashg'ulotlarning rang-barang, qiziqarli tarzda tashkilotilishiga olib kelish bilan birga o'quv materiallarining chuquro'z

lashtirilishigahamkengimkoniyatlaryaratadi. Shundayekan,
harbiro'qituvchio'qitishninginterfaol
usullariniizlabtopishivata'limjarayonigajoriyetishilozimbo'ladi.

5. Boshlang'ichsinflardao'qitishninginterfaol
usullariniqo'llashyuzasidanqat'iydarstuzilmasimavjudemas. Chunki,
buo'qitishning interfaol usullarinibarchaturdagidarslardabirdekqo'llabbo'lmaydi.
Shungaqaramasdanta'limniinterfaolusullar, o'qitishninginterfaol
ta'limtexnologiyalariasosidatashkiletishdadidaktikaningumumiyqoidalarigarioyaqil
inishishart.

6. Interfaol usullardan foydalanish o'qituvchidan har bir dars uchun nafaqat
o'zining pedagogik maqsadlari, o'quvchilarning ham identiv o'quv maqsadlarini
to'g'ri belgilab olishni, dars jarayonida o'qitishning samarali usullaridan oqilona
foydalanishini talab etadi.

7. Har bir fan xususiyatidan kelib chiqib, har bir o'quv predmeti uchun mos
va samarali metodni tanlab olish va undan oqilona foydalana bilish boshlang'ich
sinf o'qituvchisidan yuksak mahorat va tajribani talab etadi.

8. Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishda
ta'lim printsiplaridan oqilona foydalanish va o'quvchilarning bilim saviyasi va
qiziqishlarini alohida e'tiborga olish zarur.

9. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan barcha ta'lim texnologiyalarini
o'zlashtigan holda, o'qitishning interfaol usullarini ularga tadbiq etish uchun
ijodkor va o'ziga talabchan, izlanuvchan va yaratuvchan bo'lishni talab etadi.

10. Boshlang'ich sinflarda o'qitishning interfaol usullarini qo'llash, uning
o'z xususiyatlarini hisobga olish va ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun eng maqbul
usullarni tanlab olish, shuningdek, tabiiy-matematik fanlar xususiyatini ham
hisobga olish darsni samarali tashkil etishda muhim omillardan biridir.

Biz tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin
bo'ldikki, darslarda interfaol metodlarni qo'llash, yangi pedagogik
texnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o'yinlaridan, turli xil
musobaqalardan yoki qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda, nafaqat,

chuqur bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda, balki insoniy fazilatlarini o'stirib borishda samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqarli o'yinlarni o'ynashga bo'lgan qiziqishlaridan unumli foydalanib, dars jarayonlarida, mavzuga oid mashqlar bajarishda, qolaversa, uy vazifalarini tekshirishda ko'proq interfaol metod va qiziqarli o'yinlardan foydalandik.

Qo'llagan usullarimiz orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo'lmadi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlari darslarida interfaol usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanganimizda o'quvchilarning, avvalo, o'qish darsiga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomonga o'zgardi. O'qish darsiga qiziqmagan o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'ota oldik.

Eng asosiysi, tuli xil qobiliyatlari, talant qirralarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirib olishlariga, o'quv fanlari darsi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, sharqona odob-axloq normalarini rivojlantirishga erishdik.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf oquv predmetlari darslarida qiziqarli o'yinlar o'tkazish, sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib ishlash kabi usullardan foydalanganimizda o'quvchilarning mashg'ulot davomida erkin harakat qila olishga, o'zlarida his etayotgan tortinchoqlik, uyatchanlik, biladigan narsasini aytib berishga jur'at eta olmaslik kabi salbiy xarakterlaridan qutulishga, erkin fikrlash, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, fikr-mulohazalarini va xulosalarini erkin bayon eta olish, kamtarlik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi qobiliyatlarini shakllantirishga va uni rivojlantirishga erishdik.

Boshlang'ich ta'lim kursi darslarida olib borgan tajriba-sinov ishlarimiz orqali biz quyidagi natijalarga erishdik:

- og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
- lug'at boyliklari oshirildi;
- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlaridan qo'shimcha mashqlar ko'nikmalari rivojlanritildi;

- fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
- tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
- dunyoqarashlari kengaytirildi;
- o'z ona tilisiga bo'lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
- bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
- mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
- o'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Boshlang'ich sinf barcha o'quv predmetlari darslarini interfaol usullardan, didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning jazzi qalblarida milliy iftixor va milliy g'ururni shakllantirish bilan birga kamtarlik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirish hamda komil inson bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning, nafaqat ona tili darslarida balki boshqa har qanday dars turlari davomida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashish juda ham katta samarali natijalar berishiga ishonch hosil qildik.

Demak, yuqoridagilarni tajribada qo'llab, o'rganib, o'quvchilarning ko'nikma, malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

- | | |
|----------------------------------|------|
| 1. Nimani o'qidim? (o'qiganda) | 10 % |
| 2. Nimani eshitdim? (eshitganda) | 20 % |
| 3. Nimani ko'rdim? (ko'rganda) | 30 % |
| 4. Nimani eshitdim va ko'rdim? | 50 % |
| 5. Muhokama, bahs-munozara. | 70 % |
| 6. Shaxsan o'zim bajardim. | 80 % |
| 7. Ustoz bilan birga bajardim. | 90 % |

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkin, interfaol usullarni qo'llab darso'tilganda sinfda, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi.

Deyarlib barcha o'quvchilarning dars jarayoniga jalbetilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi.

O`quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o`rganishlariga imkoniyat yaratiladi.

Ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishda interfaol usullarning tutgan o`rni muammosini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o`rganish va tajribalarni umumlashtirgan holda ma`lum xulosalarga keldik va o`qituvchilar uchun quyidagicha uslubiy tavsiyalar beramiz.

Kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda barcha boshlang`ich sinf o`quv fanlariga oid darslarni turlicha tashkil etish mumkin. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi, bolalarni darsga bo`lgan qiziqishlarini orttiradi.

Kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda har bir fan va unga oid qo`shimcha mashq va mashg`ulotlar bajarish orqali o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini oshirish bo`yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`z fanini chuqur bilishi kerak.
2. O`quvchilarning ruhiyati, xarakter-xususiyatlari bilan yaqindan tanishgan bo`lishi lozim.
3. Mavzuga oid qo`shimcha mashqlar bajarishda interfaol usullardan unumli foydalanish lozim.
4. Vaqtni yo`qotmaslik uchun darsni loyihalab olish zarur.
5. Mavzu yuzasidan har xil ko`rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, krassvordlar, rebuslar, skanvordlar, test savollari tayyorlay bilishlari lozim.
6. Dars jarayonida o`qituvchi asosiy figurani emas, balki o`quvchi asosiy figurani tashkil etishi kerak.
7. O`quvchilarni ko`proq guruhlarda ishlashga yo`naltirish, ularni mazkur mavzular bo`yicha o`z fikrini qo`rqmay, tortinmay, erkin va mustaqil bayon etishga, mushohada yuritishga yo`naltirish lozim.
8. Mavzuga oid qo`shimcha mashqlar bajarish jarayonida boshqa fanlarni shu mavzu bilan integratsiyalab, ya'ni bog`lab olib borish lozim.

Agar o`qituvchilar yuqorida ta'kidlab o`tganlarimiz asosida darslarni tashkil etib borsalar, o`quvchilarning boshlang`ich sinf o`quv kursi bo`yicha bilim darajalarining kengayishiga, ularni har bir mavzuga befarq bo`lmasligiga,

o'zarining mavzu bo'yicha erkin va mustaqil mushohada yurita olishlariga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi/Xalq so'zi, 2011, 22-yanvar, 16-son.- 4 bet.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi / O'zbekiston ovozi ,2010, 1-sentabr, 105-son.- 4 bet
3. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir / Ishonch,2010,8-dekabr.- 4 bet
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma'naviyat”, 2008. - 176 bet.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.:“Sharq”, 1999. – 13-14 b.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:“O'zbekiston”, 1998. –3-5 b.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. - T.:“O'zbekiston”, 1997.- 166 bet.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. - T.:“O'zbekiston”, 1996. - 172 bet.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. – T.: “O'zbekiston”, 1996. - 164 bet.
10. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan.4-tom . - T.: “O'zbekiston”,1996.
11. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin / Tafakkur, 1998. 2-son, - 29 bet.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir. - T.: “O'zbekiston”, 2010.- 48-bet.
13. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: “O'zbekiston”, 1998.

14. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti.
Boshlang'ich ta'lim. 2006. 5- son . 48- bet.
15. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2006. 5- son. 48- bet.
16. Abdukarimov H., O. Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o`quv-metodik qo`llanma. 2012
17. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish.
Uzluksiz ta'lim. 2004. №3, 23-28 b.
18. Ergashev R., Boltaboyeva A. Boshlang'ich sinflarda ta'limning interfaol usullari / Boshlang'ich ta'lim mazmunini optimallashtirishning ilmiy-amaliy muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Qarshi, 2014.
19. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O`qish. 1-sinf uchun darslik. - T.: "Sharq", 2014
20. G'afforova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. - T.: "Sharq", 2014
21. Grigoryans A.G. Atrofimizdagi olam. 1-sinf uchun darslik. - T.: "Cho'lpon", 2014
22. Holiqov E. Interfaol usullar / Ma'rifat, 2004. 17-son.
23. Husanboeva Q. O'qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta'lim. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 2-son. – 19-23b.
24. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. - T.: "Boshlang'ich maktab" jurnali, 2000. 212- bet.
25. Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta'limi. 2004. 1-son. - 26-39 b.
26. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - T.: "Fan va texnologiya", 2010. 195-199, 272-276- betlar
27. Axmedov M., Abdurahmonova D., Jumayev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. - T.: "Turon-Iqbol", 2014
28. Pirmatova O. Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rgatishda interfaol

- usullardan foydalanish / Boshlang`ich ta`lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami, - T.: 2015
29. Rahimov Q. Boshlang`ich ta`lim samaradorligini oshirishda interfaol o`yinlarning o`rni / Boshlang`ich ta`lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami,- T.: 2015
30. Tolipov O`.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: "Fan", 2006.
31. Ushinskiy A. Ona tilini dastlabki o'qitish. Boshlang'ich ta'lim. 2002. 5-son. 11-13-b
32. Yunusova Sh. Interfaol usullardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 2004. 5-son. -15-20 b.

Internet materiallari

33. WWW. amazon.com
34. WWW. iet. mesi. ru
35. WWW. dvgu. ru. | umu | didjezt | newknov | yar 99 |
36. WWW. adpima. com
37. WWW. iet. mesi.ru
38. WWW. sciontologu.org. ru
39. WWW. ip kpol aaa net.ru